

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIGA OID
INNOVATSIYALARNI O'ZBEKISTON
TARIXI FANIGA TADBIQ ETILISHI**

2022

**Raxmonov K.J. tarix fanlari nomzodi,
dotsent**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIGA OID
INNOVATSIYALARNI O'ZBEKISTON TARIXI FANIGA
TADBIQ ETILISHI”**

MODULI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

O'zbekiston tarixi

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **K.J.Raxmonov** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchi: **Sh.A.Hayitov** tarix fanlari doktori, professor.

**O‘quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2021 yil “30” dekbardagi 5-sonli bayonnomasi)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MATERIALLAR	24
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	72
V. GLOSSARIY	88
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	92

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

“Zamonaviy ta’lim tizimiga oid innovatsiyalarni O‘zbekiston tarixi faniga tadbiq etilishi” moduli oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirish maqsadida tashkil qilinadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Zamonaviy ta’lim tizimiga oid innovatsiyalarni O‘zbekiston tarixi faniga tadbiq etilishi” modulining maqsadi: O‘zbekiston tarixi bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish va mazmunan boyitish, O‘zbekiston tarixini o‘qitish samaradorligini oshirishga yordam beradigan zamonaviy yondashishlar hamda pedagogik va axborot texnologiyalar bilan tanishtirish, yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.

“Zamonaviy ta’lim tizimiga oid innovatsiyalarni O‘zbekiston tarixi faniga tadbiq etilishi” modulining vazifalari:

- O‘zbekiston tarixining qadimgi, o‘rta asrlar, sovet davriga oid tadqiqotlarni yangicha qarashlar va innovatsiyalar orqali ta’lim tizimiga tadbiq etilishiga erishish;
- O‘zbekiston tarixi ta’limining mohiyatini mukammallashtirish;
- O‘zbekiston tarixi bo‘yicha ma’ruza, amaliy va mustaqil ta’lim olish darslarini tashkil etish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikma, malakalariga qo‘yiladigan talablar

“Zamonaviy ta’lim tizimiga oid innovatsiyalarni O‘zbekiston tarixi faniga tadbiq etilishi” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchilar:**

- jahon yetakchi universitetlarining o‘quv metodlarini;

- xorijda O‘zbekiston tarixi fanlari bo‘yicha darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari strukturasini;
- jahon va respublikamizning O‘zbekiston tarixi fanining rivoji haqida bilimlarni;
- Jahon sivilizatsiyasining mukammal, rivojlanib borish jarayonlarida O‘zbekiston tarixi fanining alohida fan mavqeiga ega bo‘lganligini;
- Qadimgi, o‘rta asrlarda va hozirgi davrdagi O‘zbekiston tarixi fanining dolzarb muammolarni, tarixiy nazariyalarini mukammal o‘rganish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi** zarur;
- kreativlik va ijodiylikni O‘zbekiston tarixiga oid fanlarni o‘qitishda qo‘llana olish **malakalarini egallashi lozim**.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Fan mazmuni o‘quv rejadagi “**Mustaqil O‘zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari**” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar **Zamonaviy ta’lim tizimiga oid innovatsiyalarni O‘zbekiston tarixi faniga tadbiq etilishi** orqali xorijiy tajribalarni o‘rganish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar va yo‘nalishga mos zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat		Auditoriya o‘quv yuklamasi	
		Hammasi	Jami	Jumladan	
				Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot
1.	O‘zbekiston tarixining qadimgi davriga oid tadqiqotlarga yangicha qarashlar va innovatsiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etilishi	2	2	2	
2.	O‘rta asrlar tarixi: yangicha talqin va yondashuv	2	2	2	
3.	O‘zbekiston tarixining sovet davri tarixiga yondashuv	2	2	2	
4.	O‘zbekiston tarixining bugungi tarixshunoslik muammolari	2	2	2	
5.	Ilk davlatchiligidan tarixiy ildizlari	2	2		2
6.	Qadimgi Baqtriya kaviyligi	2	2		2
7.	Ilk o‘rta asrlarda So‘g‘diyonada	2	2		2
8.	Turk hoqonligi va Arab xalifaligi davri	2	2		2
9.	O‘zbekiston ilk uyg‘onish davrida	2	2		2
10.	Mustaqillik yillari tarixchilar nigohida	2	2		2
Jami		20	20	8	12

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: O‘zbekiston tarixining qadimgi davriga oid tadqiqotlarga yangicha qarashlar va innovatsiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etilishi.

Reja:

1. Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligidan ildizlari.
2. Markaziy Osiyo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar natijalari.

3. Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar, ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi.

2-mavzu: O‘rta asrlar tarixi: yangicha talqin va yondashuv.

Reja:

1. Ilk o‘rta asrlar So‘g‘diyona hunarmandchiligitarixini o‘rganishga doir yangicha yondashuvar.
2. Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi bosqini.
3. Turk xoqonligi davlatining O‘zbekiston davlatchiligidagi tutgan o‘rni masalasi.
IX-XII asrlar O‘zbekiston hududida sulolalar boshqaruvi.

3-mavzu: O‘zbekiston tarixining sovet davri tarixiga yondashuv.

Reja:

1. Sovet davri tarixiga zamonaviy yondashuv.
2. O‘zbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahlillar.

4-mavzu: O‘zbekiston tarixining bugungi tarixshunoslik muammolari.

Reja:

1. Mustaqillik yillari tarixchilar nigohida.
2. “Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash” g‘oyasining mazmuni.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Ilk davlatchilimiz tarixiy ildizlari.

Reja:

1. Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchilimiz ildizlari.
2. Markaziy Osijo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar natijalari.

2-mavzu: Qadimgi Baqtriya kaviyligi.

Reja:

1. Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar.
2. Ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi.

3-mavzu: Ilk o‘rta asrlarda So‘g‘diyona.**Reja:**

1. Ilk o‘rta asrlar So‘g‘diyona hunarmandchiligi tarixi.
2. Ilk o‘rta asrlar So‘g‘diyona hunarmandchiligi tarixini o‘rganishga doir yangicha yondashuvlar.

4-mavzu: Turk hoqonligi va Arab xalifaligi davri.**Reja:**

1. Turk xoqonligi davlatining O‘zbekiston davlatchiligidagi tutgan o‘rni masalasi.
2. Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi bosqini.

5-mavzu: O‘zbekiston ilk uyg‘onish davrida.**Reja:**

1. IX-XII asrlar O‘zbekiston hududida sulolalar boshqaruvi.
2. Uyg‘onish davri buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosi.

6-mavzu: Mustaqillik yillari tarixchilar nigohida.**Reja:**


1. Sovet davri tarixiga zamonaviy yondashuv.
2. O‘zbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahlillar.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

2. “Keys-stadi” texnologiyasi

“Keys-stadi” (ingliz tilida “case” – metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta’lim oluvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat

qiladi. U ta’lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiyligi mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari.

3. “Konseptual jadval” GO

Ta’lim oluvchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda ta’lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatları rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida GOdan quyidagicha foydalaniladi:

Ўқитувчи ечими топилиши лозим бўлган мавзу (масала)ни аниклайди

Талабалар мавзу ва ГОдан фойдаланиш қоидаси билан таништирилади

Талабалар кичик групкаларга биринчилидади

Групкалар ўзларига берилган топширикни бажаради

Групкалар ечимни синф (груп) жамоаси хукмига ҳавола этади

Групкаларнинг ечимлари синф (груп) жамоасида муҳокама қилинади

4. “Klaster” GO

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

5. “Konferensiya” metodi

Texnologiya ta’lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o‘z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma’lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo’llarini topish asosida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarga o‘zlarida ijobjiy fazilatlarni ko‘proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

6. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llash ta’lim oluvchilardan o‘rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o‘zlashtirish, asosiy g‘oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Metod ta’lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo‘llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ishning yo‘nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

7. “FSMU” metodi

Grafik organayzer ta’lim oluvchilarda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:


№	Тушунчалар	(Φ)	(C)	(M)	(Y)
1.	Таълим методлари				
2.	Таълим воситалари				
3.	Таълимни ташхис қилиш				

8. “Qarorlar shajarasi” (“qaror qabul qilish”) strategiyasi

Strategiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda strategiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda ta’lim oluvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u



yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida esa berilgan savolga

ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar.

“Aqliy hujum” metodining og‘zaki turidan foydalangan holda quyidagi savollar beriladi:

1. Ta’lim jarayonida qadriyatlar tizimining o‘rnini ko‘rsating?
2. O‘zbekistonda ta’limni tashkil etishining asosiy bosqichlarini ochib bering?
3. Ta’lim jarayonining ichki imkoniyatlari va muammolariining muhim jihatlarini ta’riflab bering?
4. Boloniya deklaratsiyasining asosiy yutuqlari va kamchiliklari?
5. Ta’limning insonparvarlashuvi va axborotlashuvida falsafaning rolini ochib bering?
6. Ta’limning qaysi shakllarini bilasiz?

“Aqliy hujum” metodining yozma turidan foydalangan holda quyidagi savollarga yozma to‘liqroq variantda javob yozishlari talab etiladi:

1. Ta’lim falsafasining mohiyati nimalardan iborat?
2. Dunyo ta’lim makonida gumanitar ta’limni tashkil etish imkoniyatlari?

Aqliy xujum	-(breystorming – miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma’lumot yig‘ish
Usulni asosiy g‘oyasi	-g‘oyalalar to‘plash, ularni baholash va tahlil kilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti-xarakati uchun bu g‘oya asosiy ko‘rsatgich bo‘lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko‘p g‘oyalalar taklif kilishga undaydi.
Qoidalari	Imkonи boricha ko‘proq g‘oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo‘yish.
Ta’lim beruvchi	Qatnashchilarni 3-4 guruxga bo‘ladi va xar biriga muammolar taklif etadi (Ilova 1) -Ishtirokchilarni qo‘llab-qo‘vvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, xa-yo‘q so‘zlari bilan); -yumshoq, ammo astoydil talabalarni boshkalarni tanqid

	<p>kilishdan kaytarib turadi;</p> <p>-xar bir fikrni o‘zgartirmasdan doskaga yozdirib qo‘yadi;</p> <p>-talabalarni so‘rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tuskinlikni yukotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o‘tkazadi (blis so‘rov) (Ilova 2).</p>
Fidbeyk	<p>-har bir g‘oyani muhokama qilish;</p> <p>-eng to‘g‘ri g‘oyalarni qo‘llab-kuvvatlash</p>

3. Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

Aqliy hujumni o‘tkazishdan maqsad:

- muammoni hal qilish uchun g‘oyalarni topish;
- g‘oyalarni ularning ahamiyatliliga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g‘oyalarni paydo bo‘lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g‘oyalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

Aqliy hujum qoidalari:

- g‘oyalarni ilgari surilishi bosqichida tanqid taqiqlanadi;
- original hatto fantastik g‘oyalalar rag‘batlantiriladi;
- barcha g‘oyalalar yozib boriladi yoki qayd qilinadi;
- agar ma’qul topsa muallifning o‘zi ham yozib boradi;
- “aqliy hujum” metodida qatnashchilar bir-biri bilan yuridik va ma’muriy jihatdan bog‘liq bo‘lmasligi zarur;
- tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g‘oyalarni tahlil qiladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi;
- ushbu tadbirni o‘tkazishda Keynsning “ iqtisodchilar adashsalar ham ularni g‘oyasi kelajak uchun xizmat qiladi” degan qoidasiga amal qilish.

Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ularda erkin fikrlash layoqati shakllanadi.

“Loyiha” metodi - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ta’lim


“LOYIHA” metodi



oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

ILMIY MAQOLA LOYIHASINI TAYYORLASH

Ta’lim oluvchilarga modul mavzulari doirasida erkin mavzu tanlaydilar, ular mavzu hususiyatidan kelib chiqqan holda o‘z ilmiy maqolalarini tayyorlaydilar (hajm 4-5 varaqgacha)

“Insert jadvali”

Tinlovchilarda ma’ruzalar va mustaqil ta’lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma’lumotlarni tizimlashtirishib uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish, qabul qilinayotgan ma’lumotlarning tushunarligini nazorat qilish avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog‘lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Tinglovchilar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o‘z bilimlari bilan taqqoslaydi, mavzu bo‘yicha mustaqil ishlab, yangi ma’lumotlar oladi, ularni matnda qo‘ylgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

Namuna:

Insert jadvali

“O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR”

V	+	-	?

“V”- haqidagi bilimlarimga javob beradi;

“+” haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

“-” yangi ma'lumotlar

“?” mavzuga oid tug'ilgan savollar

“T-jadval” metodi

Jadval shaklida berilgan topshiriqni mohiyatiga ko'ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshirish talab etiladi. Jadvalning o'ng va chap tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlari bayon etiladi, masala yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi.

Namunalar:

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda ta'limning o'ziga xos xususiyatlari

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining yutuq va kamchiliklari

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyligi fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygaga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna: “Dinlarni o‘rganishda samarali uslublardan biri mintaqaviy yondashuv” fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarning yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash maqsadida qo‘llaniladi.

“Tushunchalar tahlili” metodini amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Mavzuga oid tushunchalar tahlili”

Tushuncha	Hal qiluvchi kuch	Samarasi nimada aks etadi	Yondashuvni ilgari surgan olimlar
<i>Qiyosiy dinshunoslik</i>			
<i>Vijdon erkinligi</i>			
<i>Din sotsiologiyasi</i>			
<i>Totem</i>			

Izoh: Bo‘s sh ustunlarga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn
“V” – tanish ma’lumot.		
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak		
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik		
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?		

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi

Maqsadi: o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni 5 daqika davomida sinchiklab o‘rganish talab etiladi. .
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi guruh a’zolarini o‘qilgan ma’lumot hakqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.
3. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat boshqa kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarining xar biri o‘qigan ma’lumot hakqida fikr almashinish imkonyatini beradi. Bu vazifa uchun 10daqiqa vaqt beriladi.
4. Barcha dastlab shakllangan guruxlarga ishtirokchilar qaytadi, va fikr almashingan ma’lumot yuzasidan boshqa guruhlarga berish uchun savol shakllantiradi.
5. Har bir guruxdan 1 kishi savol beradi, va to‘g‘ri javob uchun 1-3 gacha ball qo‘yiladi.
6. Trener-o‘qituvchi barcha guruhlar to‘plagan ballarni umumlashtirib, g‘olib guruhni e’lon qiladi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Bumerang” texnologiyasi asosida vazifa: Olingan materialni mazmunini tushunib olishga xarakat kiling, so‘ng guruhda muxokama qiling

<p><i>1- guruxga vazifa</i></p>	<p>Multiskript bu axborot uzatishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, bir tomondan katta hajmdagi videomateriallar bilan ishlashni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan o‘z ichiga matn, audio va video kabi bir qancha mediyaviy formatlarni oladi. Bizni qiziqtirgan videotasma fragmenti hamda bu fragmentga tegshli transkriptni tez va katta aniqlikda tanlab olish mumkin. Multiskript o‘z ichiga uchta blokni oladi – pleer, “stenogramma” va “mazmun”. Videomaterialni ko‘rish uchun pleer tagida joylashgan “Play” piktogrammasini bosish kerak. Videotasmaning bizni qiziqtirgan fragmentini ko‘rishi uch yo‘l bilan amalga oshirsa bo‘ladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - <i>pleer tagida joylashgan kursov yordamida;</i> - <i>“Stenogramma” blokida mat fragmentini bosib;</i> - <i>“Mazmun” blokida sarlavhani aktivlashtirish orqali</i>
<p><i>2- guruxga vazifa</i></p>	<p><i>Slayd-shou.</i> Fotolentadan shunisi bilan farq qiladiki, unda suratlar fotofilm rejimida mustaqil ravishda varaqlanadi. Suratlar ssenariy asosidagi ketma-ketlikda qo‘yiladi. Slayd-shou ovoz bilanbirgalikda audio-illustrasiya elementlarini, ya’ni audiositatalar, shovqin, ovozli effektlar, axborot bilan to‘yintirilgan matnni o‘z ichiga olishi mumkin. Vizual ketma-ketlik ixtiyoriy. Ular voqeа joyidan olingan suratlar yoki arxiv kadrlari, hujatlar, xaritalar, skrinshotlar, karikaturalar va h.k. bo‘lishi mumkin. Bu texnologiya reportaj, ocherk, ba’zida yangiliklarni illustrasiya qilish uchun kerak.</p>
<p><i>3- guruxga vazifa</i></p>	<p><i>Audioslayd-shou</i> – zamonaviy jurnalistikating multimediyaviyligi sabab yaratilgan fotoillustrasiyalashtirishning sintetik varianti bo‘lib, mustaqil janrga aylandi. Bu tushuncha 2000 yillarda paydo bo‘lgan. Ba’zi fotograflar fotoreportajlarining taqdimoti uchun slayd-shoulardan foydalanib, unga tadbirda yozib olingan ovozni qo‘llaganlar. Keyinchalik bu usuldan katta nashriyotlar foydalana boshladilar. Audioslayd-shou tanlab olingan fotosuratlar va ularga qo‘yilgan ovozdan iborat. Ovoz sifatida musiqiy kompozitsiya yoki muallif o‘qigan matn bo‘lishi mumkin. Mazmunning asosi bo‘lib, tashqi shovqin, ovozli effekt, audiositata yordamida berilgan hikoya xizmat qilishi mumkin. Vizual qator sifatida voqeа sodir bo‘lgan joydan olingan suratlar, yoki arxiv kadrlari, hujatlar, karikaturalar va h.k. olinishi mumkin.</p>

4-guruxga vazifa

- Panoramali fotografiya – obzor burchagi katta bo ‘lgan fotografiyadir. Ommaviy voqealarmi yoritishda, ob’ektlarni, peyzaj, joylarni tasvirga olishda ularning masshtabini ko ‘rsatishda aktualdir.
- Interaktiv foto – shunday fotografiyaki, unga maxsus metkalar qo ‘yilgan bo ‘lib, ularni bosganda matn, video, ssylka, ijtimoiy to ‘rlarning statuslari chiqadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: O‘zbekiston tarixining qadimgi davriga oid tadqiqotlarga yangicha qarashlar va innovatsiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etilishi.

Reja:

1. Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligidan ildizlari haqida.
2. Markaziy Osiyo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar natijalari.
3. Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar, ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi.

Tayanch so‘zlar: Obirahmat manzilgohi, numizmatik materiallar, antropogenez jarayoni, jamiyat taraqqiyotining sivilizatsion ko‘rinishi, uy-qo‘rg‘onlar, qal’alar, shahar harobalari.

Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligidan ildizlari haqida

Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar tomonidan katta ahamiyatga molik ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi, dolzarb mavzularni o‘z ichiga olgan ko‘plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, qator ilmiy adabiyot, monografiyalar nashr yuzini ko‘rdi, fan yuzasidan tegishli muammolarni qamrab olgan, respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy anjumanlar tashkil qilindi, dunyoning nufuzli va yetakchi ilmiy markazlari bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi, zamonaviy talablarga asoslangan qator yangi avlod o‘quv adabiyotlari chop etildi. Mazkur o‘zgarish va yangiliklarni quyida olingan aniq dalil va mulohazalar bayoni orqali tahlil etish maqsadga muvofiq bo‘lur edi. Arxeolog va antropolog olimlar tomonidan ibridoiy jamoa tuzumi davri yuzasidan qator izlanishlar amalga oshirildi. Farg‘ona vodiysidagi qadimiylig darajasi 1 mln. yil bo‘lmish Seleng‘ur g‘oridan topilgan paleolit davriga oid “fergantrop”odami qoldiqlarining o‘rganilishi hamda 2003 yili o‘zbek arxeologlarining xalqaro ekspeditsiya bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqotlari natijasida Obirahmat manzilgohidan topilgan qadimgi tosh davriga oid inson qoldiqlari O‘zbekiston –

insoniyat paydo bo‘lgan hududlardan biri bo‘lganligini to‘laqonli ravishda isbot qildi. Shuningdek, o‘zbek davlatchiligining yuzaga kelishi va shakllanishi, qadimgi Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d davlatlari tarixi yuzasidan e’tiborga molik tadqiqotlar amalga oshirildi. O‘tmish ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan muhim tarixiy manba bo‘lmish – “Avesto” kitobining vatani Xorazm vohasi ekanligi isbot qilindi. Mamlakatimiz hududi qadimdanoq Sharq va G‘arb savdo-iqtisodiy munosabatlari tutashgan, turli madaniyatlar uyg‘unlashgan joy hisoblangan. Zahmatkash va mehnatsevar, tub joy o‘troq aholi tomonidan Uzunqir, Bandixon, Yerqo‘rg‘on, Afrosiyob, Tuproqqa’ va boshqa ko‘plab ilk shaharsozlik madaniyati asnosida keyinchalik ko‘plab ma’lum va mashhur shaharlar vujudga keldi. Mustaqillik yillarida tavallud yoshlari ming yilliklarga borib taqaluvchi, jahon va sharq sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shtigan Samarqand (2750 yil), Shahrisabz (2700 yil), Qarshi (2700 yil), Termiz (2500 yil), Xiva (2500 yil), Buxoro (2500 yil), Toshkent (2200 yil), Marg‘ilon (2000 yil) shaharlarining yubileylarini keng nishonlanishida tarixchi, arxeolog, sharqshunos olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarning samarasi yuqori darajada bo‘ldi. Istiqlol yilarida Sharq va G‘arb o‘rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy ko‘prik vazifasini o‘tagan “Buyuk ipak yo‘li” tarixi ilk bora tadqiq etildi. Ma’naviyatning o‘zagi bo‘lmish xalq xotirasi, o‘tmish voqeligini anglashga bo‘lgan extiyoj yildan-yilga oshib bormoqda. Zero, XXI-informatsion texnologiyalar asri davrida innovatsion g‘oya va yondashuvlar tarix faniga bo‘lgan munosabatni yanada yuqori darajaga ko‘tarmoqda. Hozirgi kunga kelib ijtimoiy hayot sohasining barcha qatlamlariga innovatsiya atamasi shiddat bilan kirib kelmoqda. O‘zbekistonda ushbu masalaga katta ahamiyat bilan qaralmoqda. Mustaqillikning dastlabki davridanoq ilm-fan sohasiga innovatsiyalarni tatbiq etish masalasiga katta e’tibor bilan qaraldi. 1992 yil 8 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning “Innovatsion faoliyat va ilm-fan rivojlantirishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmonida ta’lim sohasi, xususan oliv ta’limda dastlabki innovatsion ishlanma, g‘oyalarga keng yo‘l ochildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning “Innovatsion

loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 2008 yil 15 iyuldagি qarori barcha sohalarda innovatsiyalarni tadbiq etishni zamonaviy ishlash jarayonining uzviy bo‘lagiga aylantirdi. Mamlakatimizda ilm-fan sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tibor bois fan sohasidagi kashfiyotlar, zamonaviy innovations texnologiyalarga oid loyiha va ishlanmalar amaliy hayot borasida tobora keng ravishda o‘z o‘rnini topmoqda.

Ta’kidlash joizki, faqat innovatsiyalar, innovations g‘oyalargina ilm-fanni taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi davr ilm-fan va ta’lim sohasining uyg‘unlashuvini ham talab qiladi. Kezi kelganda qayd etish lozimki, ta’lim tizimining sifat jihatidan takomillashuvi uchun avvalo ilm-fan yangiliklari, innovatsiyalarni o‘zida jo etishi zarur. Yuqorida bildirilgan mulohazalar zamonaviy sharoitda tarix fanidagi innovatsiya, yangiliklarni o‘rganish hamda bir joyga jam etish, ilmiy jamoatchilik aprobatsiyasidan o‘tgan tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. O‘zbekiston Milliy universiteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasи jamoasi tarix fanidagi innovatsiyalar bilan keng jamoatchilikni tanishtirish, uni amaliyotga tatbiq etish, yosh tadqiqotchilarni ilm-fan yo‘liga yanada kengroq safarbar etish maqsadida yuqorida qayd qilingan masalani o‘z ichiga qamrab olgan ilmiy to‘plam chop etishga qaror qildi. To‘plam o‘z ichiga mamlakatimiz tarixining turli davrlariga oid ko‘plab voqelik, jarayonlarni qamrab olgan.

To‘plamga maqolalari kiritilgan mualliflar o‘z ishlarida tegishli tadqiqot xulosalari bilan chiqib, o‘zлari bayon etgan masala mohiyatining yangicha yechimini ko‘rsatganlar.

Ushbu to‘plam o‘z ichiga zamonaviy o‘zbek tarixshunosligida olib borilgan ko‘plab tadqiqot, izlanishlar hosilasini ijodiy ravishda qamrab olgan. Ta’kidlash joizki, to‘plam shu yo‘nalishdagi ishlarning debochasi bo‘lib, unda faqat ayrim mualliflarning innovatsiyalari mujassam bo‘lgan.

Markaziy Osiyo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar natijalari.

Qadimgi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda shuningdek, tarixiy manbalarni tarjima qiliш, tahlil etish, numizmatik materiallar bayoni ham katta rol o‘ynadi. O‘zbekiston tarixinining voqelik va jarayonlarga boy bo‘lmish o‘rta asrlar davri tarixi bo‘yicha ham ko‘plab ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilganligini ta’kidlash joiz. Sharqshunos olimlar tomonidan shu davrga oid qator tarixiy manbalar tarjima qilindi. O‘rta asrlar davlatchiligi va davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar xususida ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Xususan, turkiy hoqonlik davri tarixi, turkiy – sug‘d simbiozi, kam o‘rganilgan qoraxoniylar, qoraxitoylar tarixi masalasi atroficha va chuqur yoritildi. O‘zbek xalqining etnogenezi masalasi bo‘yicha tegishli tadqiqot ishlari amalga oshirildi, ko‘plab jarayonlarga aniqliklar kiritildi. Fanda insoniyatning paydo bo‘lishi juda murakkab masala bo‘lib, bu jarayon asosan arxeologik va antropologik ma’lumotlar bo‘yicha o‘rganiladi. Ammo, insoniyat paydo bo‘lishining afsonalar, rivoyatlar, ilohiyot va koinot bilan bog‘liq bo‘lgan nazariyalari ham mavjuddir. Misol uchun, yakka xudolikni targ‘ib etgan barcha diniy ta’limotlarda insonning paydo bo‘lishi yoki yaratilishi ilohiyot bilan bog‘lanadi. Xususan, “Bibliya” ta’limotiga ko‘ra, odamzot xudo tomonidan 7 ming yil ilgari “qizil loydan” yaratilgan. Muqaddas Qur’oni Karimda esa odamning loydan yaratilib Ollohning irodasi bilan unga jon ato etilgani ta’kidlanadi. Zardushtiylik dinida ham shunga o‘xshash rivoyatlar mavjud. Insoniyatning ilk vakillari sifatida “Bibliya”da Adam va Yeva, Qur’oni Karimda Odam ato va Momo havo, zardo‘shtiylikda esa Iyim nomlari keltiriladi. Undan tashqari Yevropa olimlarining insoniyat qandaydir kichik mavjudotlar (bakteriyalar)dan paydo bo‘lganligi yoki koinotdan tushgan odam qiyofasidagi jonzotlar haqidagi nazariyalari ham bor.

Dunyoviy fanlar, xususan tarix fani yuqoridagi g‘oya va nazariyalarni, hatto hozirgi paytdagi gepotezalar - ko‘rinmas odam yoki koinotdagi odamlar kabilarni inkor etmagan holda antropogenez jarayonini ilm-fan yutuqlarida erishilgan natijalarning dalillarga asoslanib o‘rganadi. Tarix fanida insoniyat tabiatning bir qismi bo‘lib, u yerdagи taraqqiyotning ma’lum bosqichida vujudga kelib uzlusiz izlanish va mehnat tufayli takomillashib borganligi haqidagi xulosalar qolgan

barcha nazariyalar hamda rivoyatlardan ustunlik qiladi. Fanda odamning paydo bo‘lishi va rivojlanish jarayoni antropogenez (yunoncha “antropos” – odam, “genezis” - rivojlanish) deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda antropogenez jarayoni quyidagi to‘rtta bosqichga bo‘lib o‘rganiladi:

1. Odamning ilk ajdodlari.
2. Eng qadimgi odamlar.
3. Qadimgi odamlar.
4. Hozirgi qiyofadagi odamlar.

Odamning hayvonot dunyosidagi ajdodlar bilan bogliqligi haqidagi g‘oya ingliz olimi Ch.Darvinga tegishli bo‘lib, uning nazariyasi bo‘yicha, insonning hayvonot dunyosida ajralib chiqishidagi asosiy omillar – tabiiy saralanish va jinsiy tanlanishdir. Jamiyatshunos olimlar bu jarayonda mehnatning roli yuksak bo‘lganligi ham ta’kidlaydilar.

Eng qadimgi odamlar o‘zlarining rivojlanish bosqichlarida mehnat qurollarining turlarini ko‘paytirib va sifatini yaxshilab borganlar. Natijada ularning turmush tarzida, jismoniy ko‘rinishida o‘zgarishlar bo‘lib borgan. Shuningdek, miya hajmi ham o‘zgarib borgan. O‘rta tosh asridagi turli sabablarga ko‘ra, birinchi navbatda tinimsiz mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofali odamlarga aylana bordilar. Ular jismoniy va aqliy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga yetdi. Odamning paydo bo‘lishi yerdagи eng buyuk hodisalardan biri bo‘lib, u dastlab toshdan oddiy to‘qmoq yasagan bo‘lsa, uzluksiz mehnat, tinimsiz intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish daajasiga yetib keldi.

Antropogenez jarayonida mehnatning o‘zgartiruvchanlik mohiyatini arxeologiyaga oid turli-tuman manbalar tasdiqlaydi. Turli davrlarga oid moddiy madaniyatning almashishi hamda yangi asoslarda rivojlanishi moddiy manbalarning tashqi ko‘rinishidan ham aniqlanadi. Ko‘p ming yillar davomida rivojlangan tarixiy jarayonlar - odam va jamiyat taraqqiyotida asosiy, bosh mezon

mehnat ekanligidan dalolat beradi.

Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar, ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi.

Turli qadimgi tillar yozma manbalaridagi Baxdi, Baqtrish, Baqtryona, Baqtriya, Baxdi, Baxlika (hind manbalarida) yirik o‘lka va davlatning nomidir. Baqtriya – bu Bahdi, Baqtra daryosi (hozirgi Balxob) nomi bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchadir. Rim tarixchisi Kursiy Ruf bunday xabar qiladi: «Baqtra daryosi nomidan shahar va viloyatning nomi kelib chiqqan».

Dastlabki bosqichda bu so‘z yagona vohaning nomi bo‘lib, keyingi davrlarda keng hududga tarqalgan Baqtriya tarixiy–madaniy viloyati, Baqtriya davlati (bir necha daryo vohalari va viloyatlari) ma’nolarida ishlatalgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, qadimgi davlatlarning nomlariga odatda daryo, qabila, xalq va markaziy shaharlar nomlari asos solgan. O‘rta Osiyo xalqlarining tarixida daryolar muhim hayot manbai vazifasini bajargan. Hozir ham O‘zbekistonning viloyatlari, asosan, daryo va shaharlar nomlari bilan belgilangan. Demak, Baqtra, Baqtriya so‘zlari – bu geografik tushunchalardir.

«Baqtriyaliklar», «Baqtriya xalqi» so‘zlari qadimgi manbalarda tilga olinib, bitta xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarni birlashtirgan tushunchani beradi. Odatga ko‘ra, baqtriyaliklar yozma manbalarda bosqinchilarga (Ossuriya podshosi Nin, Kir II, Makedoniyalik Aleksandrga qarshi) turgan xalq sifatida nazarda tutilgan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Baqtriya yerlari - bu Afg‘onistonning shimoli–sharqiy qismini, Janubiy Tojikiston, Surxondaryo viloyatini o‘z ichiga olgan. Baqtriya hududida eng qadimgi odamlar tosh davridan boshlab yoyilgan. O‘zbekiston hududdiga qarashli Baqtriya qismida – Teshiktosh, Machay va Zarautsoy tosh asri yodgorliklari uzoq o‘tmish hayoti haqida dalolat beradi.

O‘zbekistonda eng qadimgi paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan (aholi o‘troq dehqonchilik xo‘jaligiga ega) yodgorliklar Surxondaryo vohasidan topib tekshirilgan. Ular bronza davriga oiddir. Bronza davrida Baqtriya hududida davlatchilik tizimiga o‘tish jarayoni boshlangan. Mazkur davrga oid saroy,

ibodatxonalar topilgan hamda yuksak binokorlik, hunarmandchilik va ziroatchilik madaniyati izlari aniqlangan.

Mil.avv. IX–VIII asrlarga kelib, Baqtriya tuprog‘ida harbiy ahamiyatga ega siyosiy birlashmalar tashkil topgan. Bu O‘rta Osiyo aholisining bir qismi ko‘chmanchi chorvachilikka o‘tgan davrga to‘g‘ri keladi. Siyosiy qaramaqarshiliklar avj olib turgan bu jarayonlarda qurollangan otliqlarning hujumlari katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu bosqichning tarixi va harbiy yo‘lboshchilarning siyosiy qurashlari “Avesto”da tasvirlangan.

Mil.avv. 700–540 yillari qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo‘lib, uning hududiy chegaralari: Hinduqush tizmasi, Badaxshon va Hisor tizmasiga borib taqalgan (daryo vohalari – Balxob, Qunduz, Panj, Vaxsh, Kofirnixon, Surxon). Bu ilmiy xulosani isbotlash tarixiy geografiyaga oid uchun maxsus maqolalar chop etilgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan hududiy chegaralari bo‘yicha Baqtriya davlati O‘rta Osiyoda rivojlangan dastlabki davlatlar ichida eng yirigi bo‘lgan. Qadimgi Baqtriya hududlariga O‘rta Amudaryoda Xorazm va sak–massagetlarning harbiy–siyosiy uyushmasiga tegishli o‘lkalar chegaradosh edi.

Marg‘iyona qadimgi Baqtriya davlatining tarkibiga kirgan. Bundan yozma manbalar dalolat beradi. Podsho Doro I ning Marg‘iyonadagi qo‘zg‘oltonni tor–mor qilishi haqida Behistun yozuvlaridagi quyidagi xulosa mavjud: “Mana nimalarni men Baqtriyada qildim”. Doro III davrida Baqtriya va Sug‘iyona birlashtirilgan o‘lka bo‘lib, unda Bess ismli satrap hokimlik qilgan. Marg‘iyona va Baqtriya aholisining urf–odatlari hamda madaniyati bir–biriga ancha o‘xshab rivoj topgan.

Videvdat kitobida Baqtriya «eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan biri baland bayroqli, “go‘zal o‘lka” sifatida yoritilgan. So‘nggi yunon manbalarida Baqtriya – «ming shaharlar davlati» deb atalgan. Bu tarixiy an’analarga nimalar asos solgan? Ahamoniylar davlatida Baqtriya eng qudratli o‘lkalardan biri hisoblanganligimi yoki uning tabiiy boyliklarimi, jasur jangovar otliq va piyoda qo‘sishlari, yirik shaharlari va qadimgi zamonalarga oid tarixi, xalqi va davlatimi? Balki shu sabablarning hammasi birgalikda va shubhasiz juda qadimgi zamonalarga

oid Baqtriya xalqining tarixiy an'analaridir.

Gerodotdan avval «Baqtriya xalqi» tushunchasini buyuk Esxil «Forslar» degan fojiasida ishlatgan (sahnada mil.avv.472 yilda ijro etilgan). “Forslar”da yosh baqtriyalik jangchilardan Tenagon va Aritomlarning ismlari tilga olingan. Ular Salamin jangida haloq bo‘lib (mil.avv. 480 yil) shu orolda dafn qilingan. «Baqtriya xalqi halok bo‘ldi» – deb Esxil o‘z asarida xulosa qilgan. Aynan qadimgi fors yozuvlarida «Baqtriya» va baqtriyaliklarning tilga olinishi mil.avv. 522 yildan so‘nggi davrlarga oiddir. Bu rasmiy darajada, ammo oldingi zamonlarda ham Baqtriya haqida turli xabarlar O‘rta Sharqda keng ma’lum edi. Shuning uchun ham Gerodotning aytishicha, Misr va Bobil bilan bir qatorda Baqtriya Kir II ning harbiy yurishlariga to‘sinq bo‘lib turgan.

Shubhasiz, bu Baqtriyaning muhim harbiy va iqtisodiy ahamiyati haqida dalolat beradi (aholi, qudratl shaharlar va qal’alarning ko‘pligi, tabiiy ashyolarning boyligi, muhim markaziy savdo yo‘llarining chorrahasi, hunarmandchilikning rivojlanishi, piyoda va otliq qo‘shinlarning yurti va boshqalar). Bundan tashqari, Baqtriya Ahamoniylar davlatining uzoq sharqiy chegaralarida joylashgan podsho taxtini egallash maqsadini o‘z oldida qo‘yilgan ahamoniylar sulolasini vakillari uchun norasmiy surgun joyi ham bo‘lishi ehtimoldan holi emas (ahamoniylar saroyidan chetlashtirish va podsho taxtidan uzoqlashtirish jarayonida). Ma’lumki, Smerdis – Bardiya podsho Kambizning buyrug‘iga binoan o‘ldirilgan, Masist o‘z akasi podsho Kserks bilan taxt uchun kurashib halok bo‘lgan. Artabon podsho Artakserksga qarshi chiqib, Baqtriya qudratiga tayangan, mil.avv.330 yilda Baqtriya satrapi Bess Doro III ni o‘ldirib, o‘zini «Osiyoning ulug‘ podshosi» Artakserks IV deb e’lon qilgan. Bu vaziyatda ham tarix yana qayta takrorlangan. Bess Makedoniyalik Aleksandrga qarshi kurashni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun Baqtriya va Sug‘dyonanining harbiy qudratiga ishongan.

Olimlarning fikriga ko‘ra, qadimgi Baqtriyaning bir qismi bo‘lgan Afg‘onistonning shimoli-sharqida (Kunduz, Ko‘kcha daryolarining vohalari) Aryonam Vayjo mamlakati joylashishi mumkin edi. U “Avesto”da Aryoshayyyona

nomi bilan ham mashhurdir. Aryoshayyyona Kavi Vishtasp podsholigi bo‘lib, Drangiana, Sattagadiya, Ariya, Marg‘iyona va Amudaryo o‘rtalari oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. Olimlar Kavi Vishtasp podsholigini Marv va Hirot atrofida joylashgan “Katta Xorazm” deb hisoblashganlar (V.B.Xenning va I.Gershovich).

Boshqa tadqiqotchilar Zaratushtra ta’limotining birinchi tarafdoi – Kavi Vishtasp davlatini Baqtriya hududiga joylashtirib, tarixiy an’analar Baqtriya tuprog‘ida davlat vujudga kelishi jarayoni juda qadimgi davrlarga oid degan fikrni olg‘a suradilar.

Arxeologiya manbalar qadimgi Baqtriyada dastlabki shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini aniqlash imkonini beradi. Baqtrianing shahar markazlari (ular asosan ayrim viloyatlarda harbiy–ma’muriy hunarmandchilik va savdo–sotiq ahamiyatga ega bo‘lgan) asrlar davomida harobalarga aylanib, yer ostida qolib ketgan. Shunday markazlardan Bolo Hisor (Baqtra), Oltindilyor, Qiziltepa va Boytudasht yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Bu shaharlar keng maydonlarda joylashib, qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Yodgorliklarda hom g‘isht va paxsadan qurilgan uy–joylar qazib ochilgan. Qurilish va hunarmandchilik ancha rivoj topgan. Shaharlarning bir qismida hukmdorlar qarorgohlari qal’a–qo‘rg‘onlar joylashgan.

Baqtriya ayrim daryo vohalaridagi beshta viloyatni birlashtirgan. Surxon, Balxob, Kofirnixon–Vaxsh, Panj, Ko‘kcha–Qunduz vohalari shular jumlasidandir. Surxon viloyatining markazi Qiziltepa bo‘lgan, Shimoliy Afg‘onistonda yirik shaharlar qoldiqlari –Bolo Hisor va Oltindilyorlar topib tekshirilgan. Bolo Hisor o‘rnida qadimgi Baqtra joylashgan. Bu shahar Gerodot va Ktesiyarning ta’kidlashicha, Baqtrianing markazi edi.

Ktesiyning «Persika» asarida Baqtrianing juda ko‘p harbiy istehkomlari va qal’alari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda Baqtriya tuprog‘idan mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmiga oid 240 dan ortiq uy–qo‘rg‘onlar, qal’alar va shaharlar harobalari topib tekshirilgan. Jumladan, Surxon vohasida joylashgan Kuchuktepa, Talashqon, Jondavlat, Bandixon, Qizilcha va Sho‘rtepa

yodgorliklarini aytib o'tish lozim. Ular devorlar va mudofaa burjlar bilan mustahkamlangan qal'alar yoki to'rtburchak shaklida qurilgan uy-qo'rg'onlardir. Qadimgi aholi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Yodgorliklarda sopol idishlar, bronzadan va temirdan yasalgan pichoqlar, o'roqlar, bronza idish parchalari hamda o'q uchlari, jez igna va bigizlar, sopol urchuqlar, toshdan ishlangan quollar topilgan.

Qurilish, hunarmandchilik – temirchilik, kulolchilik, to'quvchilik, zargarlik, charmgarlik va sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi Baqtriyada qadimiyligi madaniyat yuksak darajadaga taraqqiyotini ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi” 2008 yil 15 iyuldag'i qarori ni amaliy ahamiyatini izohlang.
2. Innovatsiyalar, innovations g'oyalarning ilm-fanni taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillarini sanang.
3. Turkiy – sug'd simbiozi haqida ma'lumot bering.
4. Ilmiy adabiyotlardagi antropogenez jarayoni to'rtta bosqichini isbotlang.
5. Baqtriyada dastlabki shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini ko'rsating.
6. Qadimgi aholi sug'orma dehqonchilik madaniyatini talqin eting.

2-mavzu: O'rta asrlar tarixi: yangicha talqin va yondashuv.

Reja:

1. Ilk o'rta asrlar So'g'diyona hunarmandchiligi tarixini o'rganishga doir yangicha yondashuvlar
2. Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi bosqini
3. IX-XII asrlar O'zbekiston hududida sulolalar boshqaruvi.

Tayanch so'zlar: Smarokansa, «uchrashuv, anjumanlar joyi», Kaltaminor madaniyati, So'g'd xududida buddaviylik, xristianlik va manixeylik adabiyoti,

Qorluqlar, O‘g‘uzlar davlati.

Ilk o‘rta asrlar So‘g‘diyona hunarmandchiligi tarixini o‘rganishga doir yangicha yondashuvlar

Turli manbalardagi Sug‘da, Sug‘uda, Sug‘diyona nomlarining kelib, chiqishi va ularning ma’nosи hozircha noma’lum. «Avesto»ning Yasht kitobida tilga olingan “Sug‘d makoni Gava” - Sug‘diyonaning eng qadimgi viloyati bo‘lishi mumkin. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Gava (Gau) – «buqa», «poda», Qashqadaryo vohasi bilan bog‘lanadi. Bu so‘z viloyatning juda ko‘p geografik nomlaridan takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gavxona, tog‘lar Gau, cho‘qqi Gau va boshqalar). Ehtimol, “Gava Sug‘da” atamasida “qudratli Sug‘d” tushunchasi o‘z aksini topgan.

Qashqadaryoda eng kadimgi dehqonchilik bilan shug‘ullangan yirik markazlar va uy–qo‘rg‘onlari qoldiqlari mil.avv. X–VIII asrlar bilan belgilanadi. Shular jumlasidan Sangirtepa, Yangitepa, Chiroqchitepa, Yerqo‘rg‘ondir. Mazkur davrga oid Yasht ma’lumotlari Gava Sug‘da haqida e’lon qiladi.

Qadimgi yunon tarixchilari Sug‘diyonani Baqtriya yoki sak-massagetlarga nisbatan kamroq tilga olganlar. Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan so‘ng Sug‘diyona haqida ma’lumotlar ancha to‘liq bo‘lib, kengayib boradi.

Sug‘diyona – bu Zarafshon, Qashqadaryo vohalarida joylashib, janubi–sharqda Baqtriya va shimoli–g‘arbda Xorazm bilan chegaradosh bo‘lgan. Qadimgi zamonlarda Sug‘diyona muhim savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgan. Sug‘diyona haqida «Avesto», Gerodot va ahamoniylar davri yozuvlari xabar qiladi.

Sug‘diyonaning markazi Maroqanda shahri (so‘g‘d tilida — Smarokansa, «uchrashuv, anjumanlar joyi» deb tarjima qilinadi). Maroqandaningharobalari – bu hozirgi Afrosiyob shahar harobalaridir. Ahamoniylar davrida uning maydoni 219 gektardan iborat bo‘lib, shahar

mudofaa devorlari bilan o‘ralgan edi. Yunon tarixchilarining ma’lumotlariga qaraganda, Maroqandaning uzunligi 11 km.ga yaqin tashqi devori va qo‘rg‘oni bo‘lgan.

Sug‘diyonaning boshqa shahar markazlari – Qarshi vohasida Yerqo‘rg‘on, Qashqadaryoning sharqiy qismidagi Uzunqir (maydoni 70 ga) va Samarqandan 30 km. shimolda joylashgan Ko‘ktepa (maydoni 100 ga) yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarda o‘tkazilgan arxeologiya tadqiqotlar qadimgi Sug‘diyona aholisiинг xo‘jaligi va madaniyatini chuqurroq o‘rganish imkonini berdi.

Topilgan arxeologiya manbalar Sug‘diyona va Baqtrianing binokorligi, moddiy madaniyatining bir–biriga ancha o‘xshash va yaqin ekanligidan dalolat beradi. Bu o‘xshash keng madaniy munosabatlar taraqqiy etishi asosida paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, so‘nggi ahamoniylar davrida ularni bir o‘lka –satraplik birlashtirgan. Ahamoniylar yozuvlari Sug‘diyonadan Persepol saroyiga lojuvard olib borilganligidan xabar beradi, ammo lojuvard konlari faqat Baqtrianing Badaxshon tog‘larida borligi ma’lum.

Sug‘diyona hududiga odamlar qadimgi tosh asridayoq kirib kelib, undan keyingi davrlarda tog‘, daryo vohalari bo‘ylab keng tarqala boshlaganlar. Qulay tabiiy–geografik sharoitda ibtidoiy xo‘jaliklar va moddiy madaniyat rivojlangan. Tosh davrga oid arxeologik Omonqo‘ton, Qo‘tirbuloq, Zirabuloq va Samarqand makonlarida topib tekshirilgan.

Mil.avv. IV–III ming yilliklarga kelib Zarafshon qo‘yi oqimida Kaltaminor madaniyati shaklidagi tosh quollar va sopol idishlar tarqaladi. Bronza davrida Quyi Zarafshon toshqin suvlari irmoqlari hosil qilgan zax yerlarda dehqonchilik rivojlangan.

Bronza davrida yashash hududlari tobora kengayib borganligi, tabiiy boyliklar, yangi konlar, sug‘oriladigan yerlar va keng yaylovlari qadimgi qabilalarga doim zarur bo‘lgaligi haqida Zarafshonning yuqori oqimida joylashgan Sarazm madaniyati dalolat beradi. Sarazm topilmalari – ko‘p xonali uylar, sopol

buyumlar, quollar, zeb–ziynat buyumlari va boshqalar mil.avv. IV ming yillikning oxiri – III ming yilikka oiddir.

Chorvador qabilalarga mansub Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod, Zarafshon tog‘lari yonbag‘ridagi Sazag‘on, Quyi Qashqadaryodagi Gujayli yodgorliklari topib tekshirildi.

Mil.avv. VII asrga kelib, Sug‘d ziroatchi aholi Sharqiy Qashqadaryo, Quyi Qashqadaryo, O‘rta va Quyi Zarafshon vohalarida joylashgan. Sug‘diyona hududi Nurota va Hisor tizmalari hamda g‘arbda dashtlar bilan chegarallangan. O‘troq viloyatlar markazlari Uzunqir, Yerqo‘rg‘on va Ko‘ktepa o‘rnida joylashgan. Mil.avv.VIII–VI asrlarda Sug‘d hududida davlatchilik tizimi rivojlangan.

Videvdat kitobida Gava Sug‘da “eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan” ikkinchi yurt sifatida ko‘rsatilgan. Yasht ro‘yxatida Baqtriya tilga olinmagan, ammo Sug‘d Xorazmdan oldin va Marg‘iyonadan keyin aytib o‘tilgan.

Davlat tashkiloti. 6 asrning o‘rtalariga kelib eftaliylar davlati tanazzulga uchray boshlagan. Turk xokonligining eftaliylar ustidan qozongan g‘alabasi (563-567 yillar) dan sung O‘rta Osiyoda xokonlik xokimiyati o‘rnatildi. 6 asrning 60-70 yillarida O‘zbekiston xududida bir nechta alohida mulklar bulib, ular rasman turk xokoniga buysunar edi. Xitoy manbalarida Samarkand So‘g‘di kann degan nomda yuritilgan va uni maxalliy sulola vakili boshkarib turganligi bayon kilinadi. Umuman, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo daryolarining xavzasida to‘qqizta aloxida mulkiy xudud mavjud bulib, ularning xar bri shaxa rva dexkonchilik tumanlariga ega bulgan. Tarixiy manbalarda aloxida mulkiy xududlar Kan sulolasiga itoatda bulganligi xususida so‘z boradi. Xar bir ma’muriy birlikning o‘z nomi bo‘lib, ular quyidagilardir: Maymurg‘, Ishtixon, Kushaniya, Buxoro, Naxshab, Amul, Andxoy va Samarkand (Kan). Samarqandning xokimi yuqoridagi 9 mulk orasida kattasi sanalgan. Boshqalari kuch-qudrat jixatidan yuksak bo‘lgan Samarqand xokimi bilan xisoblashib muomalada yuksak bo‘lgan. Xatto ayrim davlat boshliklari u bilan kuda-andachilik munosabatlarini ham o‘rnatgan. Buxoro viloyati xokimlari Samarqand xukmdorlari bilan qon-qarindosh bo‘lib, ular umumiylajdod tarafidan bir-birlari

bilan chambarchas bog‘langan edi. Bevosita Kan xukmdoriga bo‘ysungan Buxoro xokimi ham xudi shu nomdagi unvon soxibi bo‘lgan.

Samarqand So‘g‘di xukmdorining saroyidagi ajdodlar ibodatxonasida xar yilning oltinchi oyida kurbonliklar keltirish marosimi nishonlanib, unda ma’muriy birliklarning xukmdorlari ishtirok etganlar va bu xolat ular barchasining konkarindoshlik alokasida ekanligidan dalolat beradi.

7-asrning birinchi choragida Kesh viloyati kuchayib, davlatning poytaxti xozirgi Kitob o‘rnidagi Kesh shahri bo‘lib qolgan. Manbalarga ko‘ra, uning xokimi Tish degan shaxs bo‘lib, bu davrda mazkur davlat boshlig‘i kudratli xukmdorga aylanadi. manbalarda Kesh shahriga uning tomonidan asos solinganligi qayd qilinadi. 7 asrning o‘rtalarida esa Kesh xukmdori-ixshid Shishpir butun So‘g‘dning xukmdori sifatida tan olingan. U o‘z nomidan tangalar zarb ettirgan, boshqa davlatlarga esa rasmiy elchilarni yuborib turgan. Jumladan, u Xitoy davlati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Keyinroq, taxminan 7-asrning ikkinchi yarmida – Axurpat xukmronlik kilgan davrda, Kesh va Samarqand o‘rtasidagi xukmronlikni o‘z qo‘liga qaytarib olishga erishadi. Uning xukmdori ixshid unvoni soxibi bulish bilan bir katorda Kesh xokimini taxtdan ag‘darib xukmdoriga ixrid unvoni beriladi va u Samarqandning xokimiga merosiy ravishda tobe bo‘lib qoldi. Samarqandning xokimi o‘sha paytda ixshid Varxuman bo‘lgan.

So‘g‘diyonaning maxalliy xokimlari Choch va Xorazmning mustaqil xukmdorlari bilan birlashgan edilar. Yirik siyosiy birliklar ma’lum muddatlarda shaxarlardan birida uz kurultoylarini o‘tkazib turganlar.

Xorazm boshqa shahar-davlatlarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig‘iylar sulolasiga mansub podsholar boshqarib turgan. 6-7 asrlarda Xorazm o‘z boshidan iqtisodiy inqirozni kechirib turgan. Xorazmliklar boshqa davlatlar, xususan, Sharqiy Yevropa davlatlari bilan savdo-sotiq munosabatlarida bo‘lishgan. Xorazm madaniyati o‘z qiyofasini saqlab qolgan va hech qanday tashqi ta’sirga uchramagan edi.

So‘g‘diyonaning xududiga o‘sha vaqtida xozirgi Panjikentdan Karmanagacha bulgan yerlar kirgan. Buxoro esa 7 asrda mustaqil mulklar ittifokidan iborat

aloxida birlashma sifatida Samarqandga buysunmay kolgan. Uning podshosi buxorxudot unvoni sohibi bo'lgan.

Farg'ona Kan siyosiy ittifoqiga kirmagan bo'lib, u aloxida mustakil davlat edi. Uni afshin boshkargan. Farg'ona Tangritog' xalqlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan.

6-7 asrlarda yurtimiz xududida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar arexologik va yozma manbalar asosida o'rganib chiqilga. Mazkur ilmiy tadkikotlarning natijalariga suyangan xolda o'sha davrlarda So'g'diyona, Xorazm va Farg'ona xamda mazkur tarixiy-geografik xududlarga karashli mulklarda dexkonchilik, bogdorchilik, ayniqsa uzumchilik, paxta yetishtirsh va uy chorvachiligi rivoj topganligini anglash mumkin. Iqtisodiy xayotning muxim jixatlaridan biri sanalgan savdo-sotiq va xunarmandchilik ham bu asrlarda gullab-yashnadi.

Arablar davriga kadar rivojlangan sugarish tizimi bulgan. Samarqand shaxrini suv bilan ta'minlovchi aloxida suv tarmog'i o'sha vaktda mavjud edi. Kushaniyaning Narpay, Buxoro vohasining esa Shopurkom, Samarqand atrofining Raboti Xoja degan joyida uchta suv tarmog'iga ajraluvchi kanallar suv bilan ta'minlagan. Arablar Samarqandga kelgan paytlarida uning tevarak-atrofidagi dalalarning yashilligi, boglarning obodligini kurib xayratlanib kolganlar. Bu mazkur joylarda kishlok xujaligi va tarmoklarining ravnak topganligidan dalolat beradi. Dexkonchilik sun'iy sugarishga asoslangan, shu bilan birga lalmikor dexkonchilik xam keng rivoj topgan. Ziroatchilikda g'alla, no'xat, shuningdek, paxta yetishtirilgan bo'lsa, bog'dorchilikda uzum va boshqa turdag'i mevalar: gilos, shaftoli, ochadan xosil olingan. Chorvachilik soxasida yirik shoxli mollar, qo'y, echki boqilgan bo'lsa, ot, xachir va eshakdan ulov sifatida foydalanilgan. So'g'd va Farg'onaning zotdor otlariga Xitoyda talab-ehtiyoj nihoyatda kata edi va aynan shu mamlakatga ekspert kilinar edi. Tuyalardan tekisliklar, dasht va cho'l mintaqalarida transort va uy xayvoni sifatida keng foydalanilgan.

So'g'da ipak tolasi yetishtirilgan. Paxta, jun va ipak tolasini qayta ishlash zaminida mato ishlab chiqarish ancha rivojlangan edi.

Manbalarda So‘g‘dda may tayyorlashning ancha yuksak darajada ekanligi hakida ma’lumotlar bor. Bu yerning uzumi may tayyorlash uchun nixoyatda bop ekanligi xakida suz yuritiladi. Uzumdan tayyorlangan ichimlik kata zaxiralari zodagonlarning uylarida saklangan .

6-7 asrlarda savdo-sotiq ishlari janubdan shimolga tomon kuchgan. Bunda vositachilik kilish sugdiylarning kuliga utdi. Ular nafakat kuruklikda, balki shu bilan bir katorda Kaspiy dengizi orkali xam savdo ishlarida faollik kilganlar. Bu borada Poykand shaxrini aloxida tilga olish lozim, chunki mazkur joyda savdogarlar ko‘p istikomat kilganlar va usha vaktdagi oldi-sotdilarni fakat shular amalga oshirganlar. Shu boisdan bu shahar «savdogarlar shaxri» ya’ni «madinat at-tujjor» deb bejiz aytilmagan.

So‘g‘ddan chet mamlakatlarga mevalar: shaftoli, oq va sarik olcha, chorva mollaridan kuyrukror kuylar, shuningdek, yilkilar chikarilgan.

So‘g‘dning atroflari tog‘lar bilan o‘ralganligi bois, bu yerlarda oltin, mis, temir, kalayi, kumush singari ragli metallarning konlari talaygina bo‘lgan. Kesh tog‘laridan qizil tuz, oltin qazib olinsa, Ilokdan kumu shva kalayi, Maymurg‘dan latun, oltin qazib chiqarilardi. Mazkur maxsulotlarning zarur kismi ichki extiyojlar uchun bulsa,kolgani eksport sifatida chikarib turilgan. Yuqoridagi misollar topganligidan dalolat beradi. Metallurgiyada turli ashyolar va mexnat urollari: belkurak, bolta, o‘roq, mix, taqa va xunarmandchilik buyumlari: pichoq, qaychi, bezak ashyolari, keng yo‘lgan qo‘yilgandi. Shuning uchun ham so‘g‘d xarbiylari kurollanish jixatidan boshka xududlar axolisiga Karaganda ancha ustun turganlar.

Kumush, bronzada turli idishlar yasalar, shu bilan bir ktaorda bunday ashyolarning sirti naqshi-nigorlar bilan o‘yma raivshda ishlanar edi. Oltindan yasalgan xalqalar, bilaguzuklar,sirg‘alar, ko‘zmunchoq feruza, duru-gavharlar bilan bezatilib chiqarilar va juda boy buyumlari sanalar edi.

Mug‘ tog‘idan qariyb 150 xil matolarning nusxalarini topilishi bu yerda tukimachilikning rivoj topganidan dalolat beradi. Mazkur topilmalarning asosiy kismi paxtadan tayyorlangan matolardir.

Ijtimoiy tuzumga to‘xtaladigan bo‘lsak, shuni ta’kidlab qo‘yish lozimki, 7-

asrda xarbiy tuknashuvlarning kupayishi iqtisodiy xatda kata uzgarishlarni yuzaga keltirdi. Birinchidan, markazlangan xokimiyat zaiflashdi, ikkinchidan, notinchlik ma'lum darajada iqtisodiy tanglikni yuzaga keltirdi. Buning okibatida shaxarlar tushkunlikka yuz tutib, ularning maydoni kiskarib borgan, kata oilalar egalik kilgan qo'rg'on-qal'alar axamiyati oshdi va kupaydi. Xorazm va So'g'd xududlarida bunday qo'rg'on-qal'alarning atrofida dexkonchilik mavzelari xamda ularda dexkonlar va savdogarlarning mustaxkam uy-qo'rg'onlari to'planib kolgan edi.

So'g'd viloyati axolisi asosan savdogarlar, xunarmandlar, takvodorlar, xarbiy askarlar, shuningdek, ziroatkor va chorvador qatlama vakillari sanalgan.

Albatta, ijtimoiy katlamlar orasida dexkonlar mavkeining ustunligini alohida qayd etib o'tish zarur. Chunki ular zodagonlar sanalib, axolini boshka katlamiga nisbatan boy-badavlat va yirik yer-mulklariga egalik kilishgan. «Kashavarz» yoki «Kishtukor-kunandalar» katلامi vakillari dexkonlardan ijaraga yerlarni olib, ma'lum darajada to'lov berish evaziga ish yuritganlar. Akkor, chorikorlar esa mardikorlik qilish bilan kun kechirganlar.

Jamiyatda dindor shaxslarning axamiyati ulkan edi. Ular turli diniy marosimlar va udumlarni ado etishda ommaga rahbarlik kilganlar. Vag'n, ya'ni ibodatxona xujaligi xam ularning qaramog'ida bo'lgan.

Madaniyat. 7-8 asrlarda madaniy jaranlar jamiyatdagи siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy voqealar bilan o'zaro ta'sirda rivojlana borgan. Bu davrda turli xalqlarning til va yozuv turlari bir-birlariga ta'sir o'tkazdi. So'g'diyilar tili va yozuvi o'ziga xos edi. Uning ayrim so'zlari va tushunchalari xozirgi o'zbek tilida ham saqlanib qolgan.

Arab yozuviga kadar turk-runiy (miloddan avval shakllangan), uyg'ur (taxminan, 7 asr), moniviy (milodiy 6-7 asrlar), so'g'd, braxma va suryoniy yozuvlari mavjud bo'lgan.

Shimoliy Mo'g'ulistonning Urxon va Selenga daryolari voxasida topilgan Tunyuquq, Qultigin, Bilga Xoqon, Kulichur, Ungin bitigi singari yodgorliklar shular jumlasiga kiradi. Turkiy-run yozuvlarini turkiy xalklar, turkiy tamg'a (belgi)

lar negizida ixtiro kilganlar degan fikr mavjud.

So‘g‘d yozuvlari keng xududda tarkalgan. Bu jarayon so‘g‘dlarning yangi yerlarni o‘zlashtirish faoliyati va savdogarlarning «Buyuk ipak yo‘li» dagi sa‘y-xarakatlari bilan bog‘langan. Shuning uchun ham so‘g‘d tilidagi yozma yodgorliklar O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo‘g‘uliston tuprog‘ida topib tekshirilgan.

So‘g‘d yozuvi oromiy alifbosi asosida shakllangan bo‘lib, uning tarkibida 25 ta xarf bulgan va ular suldan unga tomon yozib chikilgan. So‘g‘d yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy alokalarda kata axmiyatga ega bulib, kadimgi uygur, mo‘g‘ul va manjurlar yozuvlari paydo bG‘lishiga asos bo‘ldi.

So‘g‘dlarning o‘z taqvimlari bo‘lib, unda xar bir oyning nomlari aniq qilib ko‘rsatilgan va belgilangan.

So‘g‘d xududida buddaviylik, xristianlik va manixeylik adabiyoti namunalarining sug‘d tilida bayon kilinishi mazkur tilning ustunligidan dalolat beradi.

O‘sha davrda Xorazmda maxalliy yozuv xam keng tarkalgan va amalda bo‘lgan. Tuproqkal’adan shoh arxivlarining topilishi shundan dalolat beradi.

Boy bezakar, sopol, metall idishlar, devoriy suratlar, xatto kiyimlardagi tasvirlar bu yerda tasviriy san’atning tarakkiyotidan dalolat beradi.

Diniy karashlarda zardushtiylik yetakchi urinda turgan. Axuramazda, (Ormuz, Xurmuz) «samo va yerning asoschisi» bo‘lib, uning sharafiga kurbonliklar keltirganlar.

So‘g‘diylarning Yettisuvdagagi ayrim yerlarga borib o‘rnashishlari okibatida zardushtiylik bilan o‘sha yerga xos shamoniylik dinlarining bir-biri bilan qo‘shilushi yuz berdi.

Oltoydan So‘g‘dga ko‘chib kelgan ayrim turkiy urug‘-aymoqlar esazardushtiylikni kabul kilgan edilar. Urug‘-aymoqlarning otashparastlikni kabul kilishlari kuyidagi misollarda o‘z aksini topgan: ular bo‘sh yotgan yerning atrofini to‘silqlar bilan o‘rab olib, u yerga kishilar jasadlarini tashlaydilar. Keyinroq jasaddan qolgan suyak qoldiqlarini yig‘ishtirib olib, ularni ko‘mib yuborganlar

yoki maxsus sopol tobutch-a-stodonlarga saqlaganlar. Sirti turli naqshlar bilan bezatilgan bunday astodonlar Qashqadaryo, Zarafshon vohalari va Xorazmda topilgan.

Kushon davridan boshlab So‘g‘dda buddaviylik keng tarqalgan. Buddizmga xos yodgorliklar Samarqand, Toxariston va Xorazmda topilgan.

Feodal munosabatlar rivoj topib mamlakatning siyosiy jixatdan zaiflashuvi okibatida u bir kancha mayda ilk feodal davlatlarga bulinib ketadi. 5-6 asrlardayok O‘rta Osiyoning ayrim viloyat va voxalarida yirik shaxarlarga tayangan 15 dan ortik mustakil davlatlar tashkil topgan edi. Bunday davlatlarning eng yiriklaridan Sug‘dda ixshidlar, Toxaristonda malikshohlar, Xorazmshohlar, Choch va eloqda budun va dehqonlar, Farg‘onada ixshidlar hukmronlik qiladi.

5-7 asrlarda bu mayda ilk feodal davlatlar, avval eftaliylar, so‘ngra Turk xoqonligiga bo‘ysundirilgan bo‘lsa-da, ammo eftaliylar ham, turklar ham ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to‘lab turish bilan ular o‘z mustaqilliklarini ma’lum darajada saqlab qoladilar. Bu davlatlarning hukmdorlari o‘z atroidagi mulkdor zodagon dehqonlar va ularning harbiy chokarlariga tayanardilar. Chunki ular o‘zaro bir-birlari bilan dushmanlik kayfiyatida bo‘lib, shu boisdan biri ikkinchisidan cho‘chigan holda yashar edilar.

Ular orasida yeng yirigi Sug‘dning ilk feodal davlatlari konfederatsiyasi edi. Bu ittifoqqa Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan Samarqand, Maymurg‘, Ishtixon, Kushoniya, Vardona, Buxoro, Kesh va Naxshob mulklari birlashgan edi. Bu mulklarning har biri o‘z xokimiga va harbiy chokarlariga ega edi. Ularning ko‘pchiligi Samarqand ixshidiga tobe bo‘lsa-da, ammo Buxoro, Kesh va Naxshoblar deyarli mustaqil edi. Hatto ular o‘z tanga pullarini zarb qiladilar. Samarqand ixshidi saroyida ajdodlar ruhiga atab qurbanlik qilish uchun maxsus ibodatxona bino qilingan. Unda o‘tkaziladigan xar yilgi diniy marosimlarda viloyat hukmdorlarining barchasi qatnashardi. Yozma va arxeologik manbalardan ma’lum bo‘lishicha, Sug‘d hukmdorlari O‘rta Osiyo va chet el davlatlari bilan elchilik aloqalari olib borardilar. Masalan, Afrosiyobda ochilgan devoriy rasmlarda Sug‘d hokimi Varxumaning Chag‘oniyon, Choch va Xitoydan kelgan elchilarni qabul

qilish marosimi tasvirlanadi.

Sug‘dda aholi juda gavjum yashardi. Sug‘diylar hunarmandchilik, savdosotiqlik, dehqonchilik va bog‘dorchilik, ayniqsa uzumchilikka nihoyatda omilkor edilar. Darg‘om, Nahripoy, Xarkon kabi yirik anhorlardan sug‘orilgan Sug‘d yerlari juda hosildor edi. Sug‘orma dehqonchilik rivoj topgan bu diyorda g‘alladan tashqari, paxta va sholi ekilardi. Ularning paxtasidan to‘kilgan surp va bo‘z matolaridan faqat sug‘diylargina emas, balki butun dasht aholisi kiyinardi. Sug‘dning sharbatli uzumlaridan musallas tayyorlanardi, Samarqandning zarg‘aldoq shaftolisi Xitoy poytaxtida «Samarqandning oltin shaftolisi» nomi bilan dong‘i ketgan edi. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlar bilan bir qatorda ot, xachir, yeshak va tuyalar boqilardi. Ayniqsa Sug‘dning hisori qo‘ylari va tulporlari juda mashxur edi. Buxoro, Kesh va Maymurg‘ yaylovlardan uyuruyur yilqilar muttasil Xitoyga haydab borilardi.

Sug‘d shaharlari bu davrda xunarmandchilikning markaziga aylanadi. Ularda tukimachilik, kulolchilik, kunchilik, chilangarlik, temirchilik va zargarlik rivoj topadi. Temirdan xujalik asboblari va uy-ruzgor buyumlaridan tashkari, kurol-yaroglar: shamshir xanjar, tabar, gurzi,sovut, kalkon va dubulgalar yasalardi. Xatto 718 yilda so‘g‘diylar hadya tariqasida yuborilgan dubulg‘adan nusxa olib, Xitoy qurolsizlari o‘z qo‘sishinlarini dubulg‘alar bilan ta’minlaydilar. So‘g‘d tog‘laridan oltin, jez, novshadil va yalama tuzlar kovlab olinardi. Shaharlarda hunarmandchilikning tarakkiyoti uz navbatida ichki va tashkil savdo alokalarining kengayishiga imon beradi. So‘g‘ddan Markaziy Osiyo va Xitoyga kimmataxo toshlar va ulardan yasalgan zeb-ziynatlardan tortib, turli-tuman matolar va dorivorlargacha olib chikilardi. Usha zamonda So‘g‘dda bola besh yoshga to‘lgach, uni savdo karvonlariga kushib tijorat safarlariga yuborardilar.

Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi bosqini

Arab xalifaligining talonchilik siyosati yerli xalqning barcha haqq-xuquqlaridan maxrum etilishi, madaniyatning oyoq osti qilinishi, zulm, arab tili va yozuvi, xalifalik qonun qoidalarining zo‘rlik bilan joriy etilishi natijasida mahalliy xalq orasida norozilik tobora kuchayib, qo‘zg‘olonlar ko‘tarilishiga sabab

bo‘ladi.

Xalifa Umar ibn Abdulaziz (717-719) Eron, Xuroson va Movarounnahrdagi murakkab siyosiy vaziyatni hisobga olib, bo‘ysundirilgan xalqlar bilan murosasozlik siyosatini amalga oshirishga majbur bo‘ladi. U yangi yerlarni bundan buyon zabit qilishni to‘xtatish hamda moliyaviy islohotlar o‘tkazish to‘g‘risida farmon beradi. Bunga binoan, musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan ajamliklardan hiroj va jiz’ya soliqlarini olish bekor qilinadi. Ammo Xuroson noiblari farmonni xalifalikning moliya siyosatiga zid degan bahona bilan uni bajarishdan bosh tortdilar. Ular hatto aholi hali yuzaki musulmon, jiz’yadan ozod qilish uchun xatnaga e’tibor qilish uchun xatnaga e’tibor berish lozim degan beandishalikkacha bordilar. Biroq Movarounnaxr zodagonlarining ko‘pchiligi o‘zini haqiqiy musulmon deb xisoblab, soliq to‘lamay qo‘yadi.

So‘ngra xalifalik ma’murlari bir yo‘la hammadan jiz’ya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movaraunnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlandi. Buning oqibatida mahalliy zodagonlar bilan xalifalik vakillari o‘rtasida ziddiyat keskinlashib, butun mamalakat bo‘ylab arablarga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari ko‘tarildi. Birinchi bo‘lib, 720 yilda So‘g‘d aholisi qo‘zg‘aldi. Qo‘zg‘olonga Samarqand ishxidi Gurak va Panjikent xokimi Divashtich boshchilik qildilar. So‘g‘dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan turkash hoqoni shahzoda Kursul boshliq turk lashkarini Samarqandga yubordi. So‘g‘dda bosh ko‘tarmagan hokim, isyon ko‘tarilmagan joy qolmaydi. Qo‘zg‘olonchilarining birlashgan kuchlari arablariga qattiq zarba beradi. Faqat ayrim shahar va qal’alar qurshovida qolgan arab harbiy qismlarigina katta o‘lpon va e’tiborli vakillarini qo‘zg‘olonchilar ixtiyoriga berish evaziga omon qoladilar.

Tabariyning yozishicha, qo‘zg‘oltonni bostirish uchun Xuroson noibi Said ibn Abdulaziz So‘g‘dga qarshi 3-marta yurish qiladi. Hatto u Darg‘om kanalining bosh to‘g‘oni Varqsarni egallab, Samarqand va uning tevarak atrofining suvsiz qoldirish bilan qo‘zg‘olonchilarini taslim bo‘lishiga majbur etish uchun harakat qiladi. Biroq buning uddasidan chiqa olmaydi. So‘g‘dliklar to‘g‘on boshini mardonovar himoya

qiladilar. Qo‘zg‘oltonni bostirish yo‘lidagi chora-tadbirlar natija bermaydi. 721 yili Said Xaroshiy Xurosonga noib etib tayinlanadi. Unga Iroqda xalq qo‘zg‘olonini bostirishda shafqatsizlik qilgan edi. Said Xaroshiyini qo‘zg‘olonchilar bilan olib borgan muzokalarini natijasida So‘g‘d zodagonlarining bir qismi arablar tomoniga o‘tadi.

Kuchlar bo‘linib Karzang boshliq qo‘zg‘olonchilarining bir qismi Farg‘onaga chekinishga majbur bo‘ladilar. Xo‘jandda bo‘lib o‘tgan jangda qo‘zg‘olonchilar yengiladi. Sulh tuzilgach omon qolgan 400 savdogardan tashqari barcha qo‘zg‘olonchilar xiyonatkorona qirib tashlanadi.

Divashtich boshliq qo‘zg‘olonchilarining ikkinchi guruxi ham yuqori Zarafshonda Obgar qal’asida qamalga olinadi. Omon qoldirish sharti bilan qo‘lga olingan Divashtich Arbinjonga olib borilib qatl etiladi, Uning boshi Iroq xokimiga yuborilib, tanasi otashparastlarning xilxonasi devoriga qoqib qo‘yiladi. Xo‘jandda ham Divashtichni fojeali mag‘lubiyatlaridan keyin Said Xaroshiy Movaraunnahr shahar va qishloqlarida jazo choralarini kuchaytirdi. 723 yilda arablarga qarshi Farg‘ona hokimi askar tortadi. Unga shoshliklar, nahshabliklar, turklar yordam beradilar. Ittifoqchilar dushmanga qattiq zarba berib, Xo‘janddan to Samarqandga qadar ta’qib qilib boradilar. Xalifalikning soliq siyosatiga qarshi 725 yili Xuttalonda, 728 yili So‘g‘dda qo‘zg‘olon avjiga chiqadi.

Arablar tomonidan Xuroson va Movaraunnaxr zabit etilgach, Muqanna isyonidan oldin bir qancha qo‘zg‘olon isyonlar bo‘lib o‘tdi.

Yuqorida qayd etganimizdek, arablar musulmon bo‘lganlardan juz’ya olmaslikka qaror qilgan edilar va shariat qonuni ham shuni taqozo etardi. Ammo islomni qabul qiluvchilar tobora ko‘payib borib, xalifalik xazinasiga juz’yadan keladigan daromad kamayib bordi. Arablar ham diniy qoidalarni buzib, yerli aholidan jiz’ya olishni boshlab yubordilar.

Bu voqealarda Xurosonda Asad binni Abdullo amirlik qilayotgan, Buxoro va Samarqandda uning Xoniy ismli vakili hiroj hamda soliq to‘lovchilik vazifasini bajarayotgan hijriy 110 (milodiy 729) yilda ro‘y berdi. Xoniy Buxoro va Samarqandda islomni qabul qilganlardangina juz’ya undirish bilan cheklanmay,

boshqa oliq-soliqlarni ham yig‘ishda mahalliy aholiga zug‘um o‘tkazdi. Shu sababli xalq bosh ko‘tardi. Musulmonlashgan aholi islomdan yuz o‘girdi, Buxoro, Samarqand, va Farg‘onada arablarga qarshi janglar boshlandi. Qo‘zg‘olonchilar g‘alaba qilib arablarni Poykandgacha surib bordilar. Ammo bu yerda arablarni qo‘llash uchun yangi kuchlar qilib, isyonchilar mag‘lubiyatga uchradilar.

Hijriy 119 (milodiy 737) yili Xuttalon (Qo‘lob, Baljuvon, Vaxsh) aholisi isyon ko‘tarib xiroj to‘plovchi kishilarni o‘ldirdilar. O‘sha vaqttagi Xuroson amiri Asad binni Abdullo xalqni jazolomoqchi bo‘lib katta lashkar bilan Xuttalonga bordi-yu, ammo janglarda engiladi.

Shunday qilib, 8 asrning birinchi yarmida Movaraunnaxrda xalifalikka qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘olonlari arab istilochilariga qarshi kurashning birinchi bosqichi edi.

Qo‘zg‘olonchilarning ijtimoiy tarkibi, ularning oldiga qo‘ygan maqsad va talablari ham turlicha edi.

IX-XII asrlar O‘zbekiston hududida sulolalar boshqaruvi

Siyosiy voqealar sharhi. 7-8 asr boshlari rivojlangan o‘rta asrlar bo‘lib, o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixida turli sulolalarining boshqaruv usullari va ma’muriy tizimiga xos qonuniyatlar hamda xususiyatlar rivoj topgan. Arab xalifaligi hududida mahalliy xalqning hukmron ma’murlar zulmiga qarshi qo‘zg‘olonlari avj olgach, xalifalik o‘zlariga sodiq mahalliy zodagonlarni tobe’ erlarni boshqarishga jalb qila boshladilar. Shu munosabat bilan Xurosondagi tohiriyalar xonadoni kuchayadi. Sijiston (Seyiston) hokimi Abdumuhammad Talxa ibn Abdulloh qo‘lida Husayn va Tohir degan farzandlari Hirot viloyatidagi Bushanj shahrini boshqarishgan.

Ma’lumki, Xorun ar-Rashid (786-809) vafotidan keyin uning o‘rniga katta o‘g‘li Amin xalifa bo‘ldi. Xuroson noibi bo‘lib turgan uning kichik o‘g‘li Abdulla (keyin Ma’mun laqabini olgan) hokimiyat uchun kurashda Tohir yordamidan foydalanadi. Tohir qo‘mondorligida qo‘sishinlar Amin lashkarini tor-mor keltiradi. 813 yili Ma’mun Bag‘dodni egallagach, Tohirni sipahsolor etib iayinlaydi. 821 yilda esa Tohir Xuroson viloyatiga noib bo‘ladi. 822 yili Tohir o‘ldirilgach, uning

o‘g‘li Talxa (822-828) hokim bo‘ldi. Undan keyin Tohirning ikkinchi o‘g‘li Abdulloh (824-844) taxtga o‘tirdi. 833 yili Ma’mun vafot etgach, Abdulla o‘zini xalifalikdan mustaqil deb e’lon qildi. Davlat poytaxti Marv (keyin Nishopur) bo‘ldi. Tohiriylar davlatiga Tabariston, Jurjon, Ray, Kirmon, Xuroson, Seyiston, Movarounnahrning janubiy qismi kirgan.

Muhammad ibn Tohir (862-873) davrida o‘g‘iz turklari hujumiga qarshi Farova (hozirgi Qizilravat yaqinida) va Dehiston (Mashhadi misriyon) qo‘rg‘onlari qurilib, Tohiriylar davlati hududlari mustahkamlandi.

Xalifa Ma’munga xizmatlari evaziga mulkka ega bo‘lgan Somonxudotning nabiralari Nuh (Samarqand), Ahmad (Farg‘ona), Yahyo (Choch va Istaravshan), Ilyos (Hirot)lar nomiga bo‘lsa ham, tohiriylarga qaram edilar.

9 -asr o‘rtalarida aholining quyi tabaqasidan bo‘lgan safforiylar mavqeい kuchayadi. Ya’qub ibn Lays va uning Amr, Tohir va Ali degan inilari 861 yilda Kirmon va Forsni qo‘lga kiritadilar. 871 yilda xalifa mo‘tamid (870-892) Ya’qubni Balx va Tohariston hokimi etib tayinlash haqida yorliq jo‘natadi. 873 yilda Ya’qub tohiriylar hukmdori Muhammad ibn Tohirning qo‘sishinlarini tor-mor keltirib, tohiriylar davlatiga barham berdi. Tohiriylar sulolasи:

Tohir ibn Husayn (821-822);

Talha ibn Tohir (822-828);

Abdulloh ibn Tohir (830-844);

Tohir ibn Abdulloh (844-862);

Muhammad ibn Tohir (862-873).

Tohiriylar abbosiylarga rasman tobe bo‘lganlar. Amalda esa Xuroson va Movarounnahrni o‘z tasarrufiga olgan mazkur davlat mustaqil edi. Tohir ibn Husaynning al-Ma’mun oldida mavqeい ustunligi boisidan tohiriylarning alohida davlat sifatida mayjud bo‘lishiga keng imkoniyatlar ochilgan edi.

Tohir ibn Husayn Xurosonga noib bo‘lgunga qadar al-Jazira noibi, Bag‘dod sipahsolori va Iroqdagi soliq majburiyatlarini yig‘ish boshqaruvchisi sifatida davlat boshqaruvining tajribalarini egallagan edi. Albatta yuqoridagi lavozimlar va mansablar al-Ma’mun tomonidan topshirilganligiga shak-shubha yo‘q.

Xuroson noibi bo‘lgan Tohir ibn Husayn Nishopurni o‘z qarorgohiga aylantirdi. Uning asosiy maqsadi davlatni mustaqil qilish edi. Xalifalikda siyosiy tizimning qonun-qoidalariga ko‘ra Xuroson noibi jome’ masjidida juma kunlari o‘qiladigan xutbada Bag‘dod xalifasi nomini tilga olishi shart bo‘lgan. Qudratli noib esa o‘z lavozimiga o‘tishiga hali bir yil to‘lmasdan xalifa nomini xutbadan olib tashlaydi. Shundan so‘ng, Tohir ibn Husayn o‘limining tez fursatda ro‘y berishi xalifa ayg‘oqchilari tomonidan amalga oshirilgan, deya shubha qilinadi. Bu voqeя Bag‘dod xalifasining o‘z noiblari ustidan siyosiy hukmronligini mustahkam tutishga intilishdan dalolat berardi.

O‘sha paytda Xuroson noibligiga quyidagi viloyatlar kirgan edi: Movarounnahr, Xorazm, Seyiston, Qo‘histon, Kemon, Kumis, Tabariston va Jurjon. Har bir viloyat o‘z navbatida bir necha ma’muriy birliklarga bo‘lingan. Ular hajmiga ko‘ra kichik va katta tumanlardan iborat edi.

Movarounnahrda Buxoro, Xorazm singari viloyatlar va mayda ma’muriy birliklar bo‘lgan. Movarounnahrda jami 300 000 qishloq qayd qilinib, ular 30 dan oshiq ma’muriy birliklarni tashkil etgan.

Har bir ma’muriy birlikda qozi, pochta xizmati boshlig‘i, xiroj yig‘uvchisi va mu’avun boshlig‘i bo‘lgan. Ular o‘z navbatida yirik ma’muriy birliklarning amaldorlariga bo‘ysunganlar. Ba’zan amal sohiblarining soniga qarab ma’muriy birliklar katta yo kichik maydonga egaligini bilsa bo‘ladi.

Abdulloh ibn Tohir o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida o‘z harbiy qo‘sishnlari uchun maxsus ravishda qo‘nimgoh (kazarma) inshoot ettirgan. Aynan mana shu maxsus harbiy qismlardan u zarur paytda tez foydalana olar edi.

Tohiriyalar davrida Movarounnahr va Xurosonda turli ijtimoiy toifa va qatlamlar mavjud edi. Ular jamiyatda o‘z mavqeい va o‘rinlariga ega bo‘lgan holda, mulk, martaba va mansablariga ko‘ra bir-birlaridan farq qilganlar. Ijtimoiy tuzumda xalifaga yaqin noiblar, payg‘ambar avlodlari-arab zodagonlari bilan yaqin munosabatda bo‘lgan mahalliy mulk sohiblari tashkil qilganlar. Raiyat orasida kashovarz, kishtukorkunanda, chorakor, barzigar singari ijtimoiy qatlamlar uchraydi. Yirik va mayda yer egalari dehqon atamasi bilan atalgan. Xalifalik

davrida iqta'dorlar xizmati evaziga yer-mulk sohibi bo'lgan harbiy shaxslar va amaldorlar ham tilga olinadi. Qishloq jamoasining a'zolari-mayda er egalari xiroj va jizya to'lovchilarning asosiy qismini tashkil qilganlar. Ijaraga ishlovchilar akkorlar hisoblangan. Ijaraga beriladigan yerlar-muzora'a deyilgan.

Abul-Abbos Abdulloh davrida zodagonlardan bo'lgan va o'z vatanini tashlab Makkaga ziyoratga borayotgan kambag'al kishilarga alohida g'amxo'rlik qilishgan. Bunday shaxslar g'urbo' yoki ibn sabil nomida yuritilgan. Mahalliy xalqdan bo'lgan qadimiy aholi qatlami da'iflar ham asli zodagonlardan sanalib, bu paytda kambag'allashib qolgan edi. Bundan tashqari ular «ahl-i buyutot» nomida ham aytilgan.

Xalifaning buyruq va farmonlarini bajaruvchilar, unga tobe hukmdorlar sohib haros degan nomda aytilgan.

Abdulloh otasi maslahati bilan raiyatga nisbatan ancha mo'tadil siyosat yuritgan, chunki bu ularning bosh ko'tarishi va isyoniga to'siq bo'lardi.

Tohiriyarning islomlashtirish siyosatida mustahkam turganliklari manbalarda qayd qilingan. Ular islam peshvolariga tayangan holda davlatda huquqiy munosabatlarni rivojlantirganlar.

O'z mamlakatida tartib saqlanishini istagan Abdulloh har qanday isyon yoxud qo'zg'olonning oldini olishning eng muhim usuli soliq yiquvchilarning suiste'mollariga yo'l qo'ymaslikdadir, deb tushuntirdi. Xiroj va boshqa soliqlarning miqdorini kamaytirmagan bo'lsa-da, soliq yig'ishda turli jinoiy ishga qo'l urganlarni jazoladi. Amal va mansab egalarining suiste'molliklarini oldini olish va davlat xazinasiga ziyon etkazmaslik maqsadida u o'z qo'l ostidagi sodiq kishilar orasidan maxfiy ayg'oqchilarni tanlab, ularni xizmatidan foydalandi. Bunday maxfiy shaxslar joylarda hukmdorlarning yurish-turishi, har bir mansabdorning Abdulloh oldidagi majburiyatini qay darajada bajarishi xususida noibga etkazib turishgan. Hoh u shaxs viloyat hokimi bo'lsin yoki yirik dehqon bo'lsin, Abdullohning nazorati ostida edi.

Manbalarda er-mulk munosabatlarida suv va sug'orish inshootlaridan foydalanish xususidagi qonunlar ishlab chiqilganligi va mazkur huquqiy

qoidalarning shariatga asoslanishi haqida yozilgan. Qozi mayda mulk egasi erida uy qurgan yirik zamindor o‘rtasidagi nizo-janjalni yoki suv inshootlaridan foydalanishdagi munozarali masalalarni shariat qoidalari asosida hal qilgan.

Abdullohning buyrug‘iga asosan qonunshunoslar suvdan foydalanish, sun’iy sug‘orishdagi turli munozaralarni echish, sug‘orish tizimi xususida «Kitob al kuniy» nomli qonunlar to‘plamini tuzdilar.

8-asrning oxiri 9-asr boshlarida Arab xalifaligi og‘ir siyosiy tanglikka uchradi. Movarounnahr va Xuroson aholisining tez-tez qo‘zg‘olon ko‘tarib turishi, mamlakat ichida uzluksiz davom etgkan feodal urushlar Arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashtirib qo‘yadi va mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday davlatlar dastavval Movarounnahrning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida hali xalifalikka bo‘ysundirilmagan o‘lkalarda tashkil topadi. Ulardan biri Qorluqlar va ikkinchisi O‘g‘uzlar davlatidir. Mahalliy zodagonlarning Movarounnahr va Xurosonni asta-sekin o‘z tasarrufiga olibgina qolmadilar, balki xalifalik markazida ham hokimiyatni boshqarishda tobora ko‘proq rol’ o‘ynaydigan bo‘lib qoldilar.

Bunga ayniqsa xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vafotidan so‘ng taxt uchun uning o‘g‘illari Ma’mun va Amin o‘rtasida 809-813 yillarda bo‘lib o‘tgan kurash yo‘l ochib berdi. Hirot viloyatining zodagonlaridan Tohir ibn Husayn boshliq Xuroson Movarounnahr mulkdorlari yordamida Ma’mun xalifalik taxtiga o‘tkazildi. Buning evaziga Tohir ibn Husayn Mesopatamiya noibi, Bag‘dodda xalifalikka askarboshi va Iroqda hashar ishlari bo‘yicha bosh mirob lavozimiga muyassar bo‘ladi. Somonxudotning nabiralarining esa ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlaydi. Nuxga Samarqand, Ahmadga Farg‘ona, Yahyoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga esa Hirot tegadi. Buning evaziga aka-uka somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag‘ni tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar. 9 asr arab geografi Xurdodbekning yozishchicha, har yili xalifa xazinasiga Shoshdan 607 ming, So‘g‘ddan 326 ming, Farg‘onadan 280 ming, Ustrushonadan esa 50 ming kumush dirham tushgan. Tohiriylar bilan Movarounnahrning bir necha yirik shaharlaridagi Somonxudot nabiralarining

mahalliy noibligi tohiriylar tomonidag tan olinadi. Somoniylar esa, o‘z navbatida, tohiriylarga tobe sifatida Movarounnahrni idora etadilar. 9 asrning 60-yillarida Xurosonda g‘oziyalar faolligida xalq qo‘zg‘oloni avj olib ketadi. Xurosonda tohiriylar hukmronligi tugatilib, safforiylar davlati tashkil topadi. Bu davrda Movarounnahrning Samarqand, Farg‘ona, Shosh va Ustrushona viloyatlarida noiblik qilayotgan somoniylar xonadonining siyosiy hayotida ham asta-sekin o‘zgarishlar yuz beradi. Ular hatto o‘z nomlaridan mis tangalar zarb etadilar. Ahmad vafotidan (865) keyin uning o‘g‘li Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. U Buxoro vohasi, Naxshab (Qashqadaryo), Chag‘onrud (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko‘radi. Jahar zodagonlari (Buxoro) somoniylarga murojaat qilib, Samarqandga Nasr ibn Ahmad huzuriga yuboradilar. Undan Buxoroni o‘z qo‘l ostiga olishni va somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim qilib yuborishini so‘raydilar. Nasr ukasi Ismoilni (874) Buxoroga noib qilib yuboradi. Shunday qilib, 9 asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o‘tib, u o‘z mustaqilligini tiklab oladi. Xuddi shu vaqt dan boshlab Nasr ibn ahmad o‘zining butun Movarounnahrning boshlig‘i deb hisoblay boshlaydi. Garchi ukalari Shosh viloyatining noibi Yoqub va Farg‘ona hokimi Asadlar o‘z nomlari bilan chaqa pul zarb etib, o‘zboshimchalik qilsalar ham, ammo u somoniylar hukmronligi tarixida birinchi bo‘lib kumush dirham zarb etadi. Kumush tangalar chiqarish davlat mustaqilligining ramzi hisoblanib, to shu vaqtgacha xalifalik viloyatlarida faqat tohiriylargina bunday dirhamni zarb etish huquqiga ega edilar. Shunday bo‘lsada, Buxoro noibi Ismoil akasi Nasrga itoat qilishni istamaydi. Unga berilgan viloyatni mumkin qadar iqtisodiy jihatdan mustaqil idora qilishga intiladi. Nasrning xazinasiga yuboriladigan har yilgi soliqlarni turli bahonalar bilan to‘xtatib qo‘yadi. Aka-uka o‘rtasida adovat paydo bo‘lib, u 888 yilda jangga olib keladi. Jangda Nasr qo‘shinlari tor-mor etiladi. Shu yildan boshlab, Ismoil butun Movarounnahrni birlashtirib, uning hukmdori bo‘lib oladi. Ismoil Somoniy 893 yilda Taroz shahrini fath etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi. Bu somoniylar davrida

ko‘chmanchilarga qarshi qilingan oxirgi katta yurish edi. Somoniylar davlatining tobora kuchayib borishi sharqiy viloyatlardan muttasil undirilib olinadigan katta boyliklardan mahrum bo‘lgan Arab xalifaligini, bir tomonidan, nihoyatda ranjitsa, ikkinchi tomonidan, cho‘chitar ham edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni to‘qnashtirishga va bu yosh hamda boy ikki davlatning har ikkisini ham zaiflashtirib, ma’lum darajada o‘z ta’sirini qayta tiklashga harakat qiladi. Natijada 900 yilda ular o‘rtasida boshlanib ketgan urush Ismoilning g‘alabasi bilan tugaydi. Shunday qilib, 9 - asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo‘ladi, Xurosonda tashkil topgan safforiylar davlatiga barham beradi va uni o‘z davlatiga qo‘shib oladi. Natijada poytaxti Buxoro shahri bo‘lgan zamonasining eng yirik mustaqil feodal davlati tashkil topadi. Lekin X asr boshlarida va o‘rtalaridagi tartibsizlik, aholisi turli tabaqalarning hokimiyatga qarshi qo‘zg‘alishi siyosiy vaziyatni og‘irlashtiradi. Siyosiy vaziyat ayniqsa, Nux ibn Nasr (943-954) va uning nabirasi Nux ibn Mansur (976-997) hukmronlik qilgan davrda nihoyatda keskin tus oladi. 947 yilda Nux ibn Nasrning amakisi Ibrohim ibn Ahmad isyon ko‘taradi. U saroy gvardiyasi va Chog‘oniyoning yirik feodallaridan Abu Ali Chog‘oniy yordamida Buxoro taxtini egallab olib, juda qisqa muddat bo‘lsada, hukmronlik qiladi. Ko‘p vaqt o‘tmay Abu Ali Chag‘oniy bosh ko‘taradi. Nux ibn Nasr qo‘zg‘oltonni kuch bilan bostira olmaydi. 952 yilda Abu Ali Chag‘oniysi u avval Chag‘oniyonga, so‘ngra esa Xurosonga hokim qilib tayinlashga majbur bo‘ladi. 961 yilda Buxoro harbiy lashkarlarining g‘alayoni ko‘tariladi. X asr oxiriga kelib somoniylar o‘rtasida avj olib ketgan o‘zaro kurashlar natijasida somoniylar davlati nihoyatda zaiflashib qoladi. Bu davrda u Yettisuv viloyatida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrga tomon yurishlariga qarshi tura olmaydi va uning shiddatli hamlalariga bardosh bera olmay qulaydi.

Movarounnahr zamini o‘rta asr musulmon sharqida ma’rifat va madaniyat maskani sifatida dong taratgan o‘lka hisoblangan. Yurtimizdan yetishib chiqqan al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Farobi, ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy va boshqa buyuk alloma, qomusiy olimlarning ilmiy merosi haqli ravishda umumbashariy

mulkka aylangan. Sobiq sovet davrida ushbu olimlarning ilmiy merosiga bir tomonlama munosabat shakllangan bo'lsa, mustaqillik yillariga kelib ushbu buyuk zotlar faoliyati va ilmiy merosi har tomonlama chuqur o'rganilishi boshlandi. O'lkamiz shuningdek, islom dini taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan muhaddis, dinshunos olimlar, tasavvuf ilmi namoyondalari yurti ham hisoblanadi. Sovet mustabid davrida nomi unut darajasiga kelib qolgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Hakim at-Termiziy, Imom al-Moturudiy, Abdulholiq G'ijduvoniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahovuddin Naqshband, Qaffol Shoshiy, Xoja Ahror va boshqa diniy arboblarning tabarruk nomlarini tiklash, ularning asarlarini keng jamoatchilikka, xalqimizga tanishtirishda aynan sharqshunos-tarixchi olimlarning hissasi katta bo'ldi. Zero ajdodlarimiz muqaddas dini bo'l mish islomning tom ma'nodagi ezgulik hamda kamolotga erishish yo'lidagi buyuk ma'naviy qudratini namoyon etishda yuqorida nomi zikr etilgan olimlar katta jonbozlik ko'rsatishdi.

Nazorat savollari:

1. Konfederatsiya nima?
2. Qaysi Sug'd shaharlari bu davrda xunarmandchilikning markaziga aylanadi?
3. So'g'd zodagonlarining bir qismi nima sababdan arablar tomoniga o'tadi?
4. So'g'diyona hunarmandchiligi tarixini o'rganishga doir qanday yondashuvlar mavjud?
5. IX-XII asrlar O'zbekiston hududida qanday sulolalar boshqaruvi bo'lgan?
6. IX-XII asrlardagi sulolalar boshqaruviga doir qanday yondashuvlar mavjud?

3-mavzu: O'zbekiston tarixining sovet davri tarixiga yondashuv.

Reja:

1. Sovet davri tarixiga zamonaviy yondashuv
2. O'zbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahlillar

Tayanch so'zlar: madaniy-ma'naviy tadbirlar, targ'ibot aksiyalari, konsert dasturlari, tasviriy san'at ko'rgazmalar, ijodiy kechalar, tanlovlар, ommaviy sport

musobaqalari, «uch avlod vakillari uchrashuvlari», Rossiya ulug‘ sultanatchiligi, 1979 yildagi “Rim klubı”.

Sovet davri tarixiga zamonaviy yondashuv

Tarixchi boshqa ayrim fan mutaxassislaridan farqli o‘larоq, ilmiy ish ustida sinovlar o‘tkazishga, tadqiqot ob’ektini bevosita kuzatishga, xususan o‘zi o‘rganayotgan o‘tmishni, voqeа-hodisalarни tom ma’noda qaytarishga imkoniyati yo‘q. Chunki sodir bo‘lgan tarixiy voqealar hech qachon yana o‘sha tarzda, aynan o‘sha joyda qaytarilmaydi. Demak, tarixchi o‘z tadqiqoti uchun sodir bo‘lgan voqeа-hodisalarни tiklash, tajriba, sinov yo‘li bilan yana qaytarish imkoniyatiga ega emas. Ilmiy tadqiqot uchun izlanuvchi materialni tarixiy manbalardan, hujjatlardan, yodgorliklardan oladi. Tarixchi uchun materiallar, xususan o‘tmish materiallari har kuni keltiriladi va bu tarixiy bilimni kundan-kunga ko‘payib borishidan dalolat beradi. Tadqiqotlar muammosi doimo kengayib, murakkablashib boraveradi. Ilmiy izlanishlar orqali yangi manbalar, dalillar yuzaga chiqib, ularni o‘rganish, tahlil qilish takomillashib bormoqda. Bu esa tarix bO‘yicha ilmiy tadqiqot qiladiganlardan zamon ruhi bilan qadam-baqadam yurishni, voqeа-hodisalarни, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni doimo kuzatib, taqqoslab, tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilib borishni taqozo etadi. Zero, hech bir ilmiy izlanuvchi tarixdagi barcha yo‘nalishlar bO‘yicha tadqiqotga qo‘l ura olmagani holda, ayni paytda ilmiy tadqiqotchi o‘zigacha bo‘lgan ilmiy izlanishlar va bugungi kundagi olib borilayotgan tadqiqotlar to‘g‘risida ma’lum bir tushunchalarga ega bo‘lishi zarur. Bu esa tarixchini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar holatidan boxabar qilish bilan birga, o‘zi olib borayotgan tadqiqotlarida yangi ilmiy xulosalar chiqarishga undaydi. Tarixchi-tadqiqotchi tomonidan voqeа-hodisalarga, o‘tmishga berilgan baho, bu amalda o‘ziga xos tarixiy jarayonlar bo‘yicha chiqarilgan hukm hisoblanadi. Shuning uchun ham tarixiy voqeа-hodisalar ustidan “O‘qilayotgan hukm”, ya’ni manbalarning tarixiy talqini xolisona yondashishni talab etadi. Bu bilan tarixchi ma’lum darajada tarixiy jarayonlar bo‘yicha “hakam” vazifasini ham o‘taydi. Tarixiy dalillarni umumlashtirish, tahlil

qilish asosida voqeal-hodisalarga nisbatan beriladigan tarixiy xulosada tadqiqotchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Tadqiqotlarda adolatli xulosaga kelish tarixchining tarixiy manbalarni qay darajada o'rganganiga, nazariy bilimlariga bevosita bog'liq bO'ladi. Tarixiy yutug'imizning ma'naviy negizini mustahkamlash o'zbek xalqi tanlab olgan o'ziga xos yo'lni muvaffaqiyatli amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri ekanligi shak-shubhasiz. Bu muhim tarixiy vazifani-mustaqlilikning ma'naviy asoslarini qaror toptirish va yanada mustahkamlashda siz yoshlarni ma'naviy kamolotga yetkazish, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash, hozirgi zamon ilmiy bilimlari bilan qurollantirish favqulodda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'p millatli O'zbekiston xalqi butun taraqqiyparvar insoniyat qatori 1941 - 1945 yillarda Ikkinci jahon urushida faol ishtirok etib, fashizm ustidan qozonilgan buyuk G'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shdi.

El-yurtimizning urush yillarida ko'rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g'urur-iftixon manbai bo'lib, vaqt o'tgani sayin bu o'lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Shuning uchun har yili 9 may- G'alaba bayrami mamlakatimizda Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanadi. Ikkinci jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirilib, fashizmga qarshi janglarda, mehnat frontida jonbozlik ko'rsatgan faxriylarimizga alohida e'tibor va ehtirom ko'rsatish yurtimizda olijanob an'anaga aylanib qoldi.

Ana shunday ezgu ishlarni izchil davom ettirish, 2020 yili dunyo miqyosida keng nishonlanadigan buyuk sana -G'alabaning 75 yillik bayramiga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni yuksak darajada o'tkazish, O'zbekiston xalqining jang maydonlaridagi, urush ortidagi qahramonligi va fidokorona mehnatini, tarixiy xizmatlarini mamlakatimiz va jahon jamoatchiligiga yetkazish va abadiylashtirish, yosh avlodimizni ota-bobolarimiz jasoratiga munosib bo'lgan, bugungi tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylash va yanada mustahkamlashga qodir, jonajon Vatanimizga sadoqatli insonlar etib tarbiyalash maqsadida:

1. Ikkinci jahon urushida qozonilgan g'alabaning 75 yilligini nishonlashga

tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha asosiy chora-tadbirlar dasturi (keyingi o‘rinlarda - Dastur) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Dasturga binoan:

Ikkinci jahon urushi ishtirokchilari, mehnat fronti faxriyalarini, shuningdek, mustaqillik yillarida Vatan himoyasi va xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining oila a’zolarini har tomonlama ijtimoiy-huquqiy himoya qilish hamda ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

«Ajdodlarimiz jasorati - mangu barhayot» degan g‘oya asosida mamlakatimizdagи barcha viloyat, tuman va shaharlarda Ikkinci jahon urushi ishtirokchilarining qahramonliklari, o‘zbek xalqining front ortidagi fidokorona mehnati va g‘alabaga qo‘shgan beqiyos hissasi, front hududlaridan respublikamizga ko‘chirib keltirilgan yuz minglab insonlarga nisbatan ko‘rsatgan yuksak insonparvarlik fazilatlarini har tomonlama chuqur aks ettiradigan madaniy-ma’naviy tadbirlar, targ‘ibot aksiyalari, konsert dasturlari, tasviriy san’at ko‘rgazmalari, ijodiy kechalar, tanlovlari, ommaviy sport musobaqalari, «uch avlod vakillari uchrashuvlari»ni, shuningdek, mehnat jamoalari, mahalla va guzarlarda, turar-joy mavzelerida obodonchilik ishlarini tashkil etish;

fashizmga qarshi kurashda qahramonlik ko‘rsatgan yurtdoshlarimiz haqida yangi badiiy va hujjatli asarlar, kino va spektakllar, musiqa va tasviriy san’at asarlari yaratish;

fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 75 yilligini munosib kutib olish maqsadida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi mamlakatlarida bo‘lib o‘tadigan xalqaro anjumanlar, harbiy-sport o‘yinlari va askar qo‘shiqlari xalqaro festivallarida ishtirok etish bo‘yicha tayyorgarlik ishlarini yuksak saviyada amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Konsepsiyanı amalga oshirishda:

G‘alaba bog‘i mohiyat e’tibori bilan xalqimizning urush yillarida ko‘rsatgan mardlik va matonati, yuksak insoniy fazilatlarini, qahramon ajdodlarimizning

nomlari, shonli an'ana va qadriyatlarini abadiylashtirishga, yurtimizda inson xotirasi aziz va muqaddas, qadri ulug' ekanini ta'kidlashga, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilganini e'tiborga olib, ushbu g'oyani ta'sirchan badiiy-monumental usullar, innovatsion yechimlar asosida ifoda etishga alohida ahamiyat berilgan;

G'alaba bog'inining umumiy ko'rinishi, me'moriy tuzilishi milliy an'analarimizga mos bo'lishi hamda memorial yodgorliklar yaratish bo'yicha jahondagi ilg'or tajribalarni o'zida mujassam etishi ta'minlangan;

bog' markazida besh o'g'li urushda mardlarcha halok bo'lgan Zulfiya Zokirova va uning sadoqatli kelinlari siymosida o'zbek oilasining umumlashgan obrazini aks ettiradigan «Matonat madhiyasi» deb nomlangan yodgorlik majmuasini yuksak g'oyaviy-badiiy saviyada yaratish uchun eng iste'dodli va mahoratli ijodkorlar, me'mor va mutaxassislar jalb etilgan;

G'alaba bog'idagi har bir ob'ekt va qurilma, muzey eksponatlari orqali xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni urushning dahshatli oqibatlarini hech qachon unutmaslikka, bugungi tinch va osuda hayot, mustaqillikning qadriga yetishga, doimo ogoh va hushyor bo'lib yashash, Vatan himoyasiga tayyor turish ruhida tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berilgan;

bog'da aholining tarix bilan hamnafas bo'lib, o'tganlar xotirasini yod etishi, ularga hurmat bajo keltirishi, mazmunli dam olish, ommaviy madaniy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar, adabiy kechalar o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

O'zbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahlillar

O'zbekiston Prezidenti birinchi Islom Karimov O'zbekiston tarixining barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyatiga yuksak baho berib: "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'limganidek o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi"¹, - degan edi. O'tmishni bugun yaratib bo'lmaydi, o'tmish bugunni yaratadi. Tarixdagi har bir ijtimoiy yuksalish jamiyatning o'z merosiga,

¹Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. -T.: "O'zbekiston", 1992. -B.71.

o‘z o‘tmishiga bo‘lgan munosabatini isloh qilishdan boshlangan. O‘tmishga bo‘lgan har qanday ijodiy murojaat esa hamisha inqilobiy o‘zgarishlarga zamin tayyorlagan, o‘tmish aqidalari bugun uchun xizmat qilgan. Biroq, o‘tmishga murojaat qilishdan avval, unga bo‘lgan munosabatni halol, to‘g‘ri yo‘lga solish kerak. Busiz tarixni xolisona yaratish mumkin emas. Soat millarini orqaga burgan bilan Vatan tarixini to‘xtatib yoki qaytarib bo‘larmikan, sarhadi yo‘q falakda uchib yurgan buyuklarning ruhlarini o‘q uzgan bilan o‘ldirib bo‘larmikan? "Muhabbatsiz yurakka Vatan sig‘maydi. Har bir go‘dak, har bir fuqaro o‘z davri bilan Vatanni yod etadi. Dardsiz yurakka Vatan sig‘maydi. Vatan dardi, Vatan muhabbati bilan yashagan yurakkina insoniyatni sevadi, insoniyat uchun kuyinadi", - deydi shoir Xurshid Davron.

Ulug‘ mutafakkirlar va donolar hamisha Vatanni ulug‘lab, ardoqlab kelganlar. Vatan va millat xoinlari, sotqinlariga qarshi kurashib o‘t ochganlar. Rus yozuvchisi M. A. Sholoxov: "Bizni ona yanglig‘ oq yuvib, oq taragan vatanni sevmoq bu muqaddas burchdir" desa, bobokalon shoirimiz Alisher Navoiy: Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g‘urbat havas aylama, -
deydi.

Vatandan tashqarida baxt bo‘lмаган va bo‘lmайди ham. O‘zgalar yurti, begona diyor hech qachon Vatan bo‘lolmaydi. O‘zga yurtda shoh bo‘lgandan o‘z yurtingda gado bo‘lgan afzal, degan naql bejiz aytilmagan. Haqiqiy vatanparvar Vatanning og‘ir kunida ham, yengil kunida ham uni tark etmaydi, u bilan birga bo‘ladi.

Barcha jinoyatlar orasida eng tubani, eng og‘iri — bu Vatanga, millatga xiyonat va sotqinlikdir. "O‘z yurtidan yuz o‘girganlar o‘z vatandoshlaridan ham yuz o‘giradilar", - deydi Ya. Galan.

Vatanga, elu - yurtga, millat va xalqqa xiyonat va sotqinlik hayotda turlichay ko‘rinishlarda va shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. U ba’zan ochiq-oydin Vatanni, yurt va millatni sotish, xiyonat tarzida, ba’zan esa yashirinchcha, zimdan va xufiya ko‘rinishida sodir etilishi ham ehtimol. O‘zining xatti-harakati bilan

Vatanga, yurtga va millat sha'niga dog' tushirish ham Vatanga, millatga xiyonatdir. Vatan taqdiri, millat taqdiriga aloqador masala va muammolarga e'tiborsizlik loqaydlik bunday masalalardan o'zini chetga olishlik qo'rkoqlik betaraflik go'llik va shu singari xatti-harakatlar ham Vatanga, xalq va millatga xiyonat va sotqinlik hisoblanadi. Bu xususda hayotdan juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, o'tish bosqichi davridagi hayotda ma'lum sabablar oqibatida mavjud bo'lgan vaqtinchalik iqtisodiy qiyinchiliklar oldida esankirab, ba'zi bir kimsalarning sobiq SSSRni qayta tiklashni qo'msaganlari O'zbekistonga nisbatan, milliy manfaatimizga nisbatan xiyonat va sotqinlikdir. Chunki bunday shaxslar bilib-bilmay, ongli yoki ongsiz suratda o'z xatti-harakatlari bilan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini barbod qilishga intilayotgan kuchlar tegirmoniga suv quyadilar, milliy birligimizga rahna soladilar. Yoki Sovet hokimiysi yillarda O'zbekiston tarixining Rossiya ulug' saltanatchiligi tarafida turib soxta bir tarzda yozilishi, maktablarda jahon xalqlari tarixi, SSSR tarixi bayrog'i ostida amalda Rossiya tarixining o'qitilishi hamda Vatan tarixini umuman nazar-pisand qilinmaganligi o'z davrida o'zbek xalqining milliy manfaatlariga xiyonat edi.

Tarix fani bo'yicha ilmiy ishga kirishgan tadqiqotchilar uchun tarixdagi muammolarni o'rganish, voqeа-hodisalar va tarixiy xronologiyaga munosabat, tarixiy atamalar, iboralar va tushunchalar, tarixiy shaxslar ismi sharifi, tarixiy asarlar nomi va mualliflari, tarixiy sana va dalillarni keltirishda anglashilmovchilikka, xatolikka yo'l qo'yish mumkin emas. Buning uchun "tarix nonini yeyish"ga ahd qilgan tadqiqotchi har tomonlama tayyorgarlik ko'rgan, xususan tarixga oid bilimlarni egallagan, o'zining mustahkam eslash qobiliyatiga, tarixiy voqeа-hodisa, jarayonlarni, dalillarni taqqoslash, tahlil qilish va mavjud manbalarni o'rganish va talqin qilishda keng qamrovli mushohadaga ega bo'lgan mutaxassis bo'lmog'i darkor. Tarix fanida mavjud muammolar echimiga "sayoz" qarash, manbalarga shunchaki "ko'z yogurtirish", "arzon shov-shuv" larga intilish bilan jiddiy va asosli ilmiy tadqiqotni amalga oshirib bo'lmaydi.

Albatta, tarix fanida dalillar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchi tomonidan

mavjud tarixiy dalillarni o‘rganish, saralash va ularga baho berish, talqin qilish jarayoni shunchaki oddiy vazifalardan hisoblanmaydi. Tarixiy dalillar turlicha, ya’ni kichik, yirik, ahamiyatga molik, keng miqyosdagi tarixiy jarayonlar yoki alohida bir voqeani yorituvchi, xronologik jihatdan yaqinda yoki uzoq o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqeа-hodisani o‘z ichiga olishi mumkin. Yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlardagi tarixiy dalillar qamrovini yana davom ettirish mumkin. Ammo shu narsa aniqki, tarix fanidagi dalillar katta-kichikligi, muhim, katta yoki kichik ahamiyatga molik ekanligi bilan turli tarzda talqin qilinishi mumkin bo‘lgani holda, baribir chuqur va sinchkovlik bilan o‘rganishni, qiyosiy tahlilni taqozo etadi. Tarixiy dalillarga baho berish, ularni o‘rganish uslubi, tizimga solish ma’lum darajada ilmiy tadqiqotchining bilim darjasи, tajribasi va mashaqqatli ilmiy mehnatga sarflaydigan vaqtiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotlarda tarixiy dalillardan ishonchli va unumli tarzda foydalanish ko‘nikmasi asta-sekin, talabalikning ilk bosqichlaridan boshlab, tarixiy fanlarni o‘zlashtirib borish jarayoni natijasida vujudga keladi.

Tarix fanida dalillar muhim ahamiyatga molik ekanligini tasdiqlagan holda qayd etish mumkinki, tarixchi-tadqiqotchi uchun dalillarning o‘ziga etarli emas. Ilmiy tadqiqotchining vazifasi shuki, mavjud tarixiy dalillarni chuqur o‘rganishi, solishtirishi va ularni ilmiy talqinlar orqali “jonlantirish”i kerak. Tarix fanidagi tarixiy dalillarning o‘zi - bu amalda hech narsa emas. Yig‘ilgan tarixiy dalillarning o‘zi o‘rganilayotgan mavzuni yoritishda, xususan ilmiy tadqiqot uchun ma’lum bir poydevor vazifasini o‘taydi. Tarix fanida dalillarni o‘rganish ilmiy tadqiqotda dastlabki pog‘ona bo‘lib, keyingi bosqich mavjud dalillarni umumlashtirish hisoblanadi.

Tarixchi-tadqiqotchining vazifasiga dalillarni qalashtirib tashlash emas, balki mayjud tarixiy dalillarni nazariy jihatdan mushohada qilish, umumlashtirish, saralash, tahlil qilish va ular orasidan eng muhimlarini ajratib, ilmiy tadqiqot matniga kiritish hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot orqali tarixiy dalillarni ta’kidlash bilan birga, voqeа-hodisalarning qonuniy jarayonini, sabab va oqibatlarini “tarix tarozisi”ga solib, uni xolisona, ilmiy bayon etish kerak bo‘ladi.

Tarixiy dalillar va umumlashtirish o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu tarix bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradiganlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, tarixiy tadqiqotda nafaqat dalillarga, balki ularni umumlashtirishga ham katta e’tibor qaratiladi. Zero, ilmiy tadqiqot ma’lum darajada avvaldan rejalshtirilgan ilmiy xulosalarga olib kelmasligi kerak.

Tarixiy tadqiqotga jazm qilgan ilmiy izlanuvchilar doimo o‘z ustida ishlashi, tarixiy mushohadasini rivojlantirib borishi, uzlusiz ravishda o‘qigan va uqqanlari hamda yiqqan manbalari, tarixiy materiallari bO‘yicha o‘ylab yurish odatini shakllantirishi, ilmiy taqqoslay olishi, umumlashtira va xulosa chiqara olish, mavjud materiallarni shunchaki o‘rganmasdan, chuqur tahlil qilish xususiyatini asta-sekin shakllantirish kabi xislatlarni o‘zida mujassamlashtirishi kerak.

Biroq mustaqilligimizning dastlabki paytlarida bu muhim ta’lim-tarbiyaviy vazifani keng ko‘lamda samarali hal qilish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarimiz bir muncha cheklangan edi. Nafaqat O‘zbekistonning boy tarixini yangicha idrok etish, balki yangi milliy istiqlol g‘oyasining shakllanishi va uni fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimiz ongida qaror toptirish ishiga xizmat qilishga dav’at etilgan O‘zbekiston tariximizning o‘zi jiddiy yangilanishi lozim edi. Mustaqil O‘zbekistonning ilmiy-nazariy jihatdan puxta asoslangan yangi tarixiga talab ortib bordi va bu talab paysalga solinmay qondirilishi zarur edi. Yana bir yetilgan ehtiyojning tez orada hal etilishi taqozo etildi tarix fanimiz yangilanishi va rivojining mustahkam tayanchi sifatida uning yagona konsepsiysi yaratilishi kerak edi. Bu dolzarb muammoning yechilishi zarurligi I.A.Karimovning 1998 yilning iyunida bir guruh tarixchi olimlar, ijodiy xodimlar va jurnalistlar bilan bo‘lgan suhbatida uqtirilgan edi.

Islom Karimovning "Tarixiy hotirasiz kelajak yo‘q" nomli asari tadqiqotchilar uchun ham, tarix fanida ta’lim berayotganlar uchun ham muhim dasturilamal va metodologik asos sifatida samarali xizmat qilmoqda.

Tarix ta’limi haqida, O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishning sifatini oshirish to‘g‘risida so‘z ketganda bu sohaga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan yana bir omilni ham qayd etib o‘tish joizdir. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining

Tarix instituti huzurida Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixini o'rghanish" Respublika ilmiy seminari faoliyat ko'rsatib turibdi. Maxsus komissiya tayyorlagan va ma'qullagan "O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiysi" o'zbek xalqi davlatchiligi tarixini yaratishga munosib hissa qo'shdi. Bugungi kunda bu muhim hujjat o'zbek xalqi va uning milliy davlatchiligining haqqoniy tarixini yaratish, xalqimizda, ayniqsa yosh avlod ongi tarixiy xotira va tafakkurni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirishga ustuvor yo'naliш berilayotganligining asl boisi ham shundaki, har tomonlama tarbiya ko'rgan, ma'rifatli, ma'naviyati yuksak milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini o'z ongida qaror toptirgan komil insonlarni voyaga yetkazib borish ko'p jihatdan ma'naviyat sohasidagi sa'y-harakatlar tizimida yoshlarga, talabalarga tarix ta'lmini berish, O'zbekiston tarixi fanini o'qitish, bu fandan ta'lim berish sifatini davr talablari darajasiga ko'tarish alohida o'rin tutadi. Shu munosabat bilan mustaqillik yillarida bu borada qator muhim tadbirlar amalga oshirildiki, ular o'zining ijobiy samarasini bera boshladi.

Nazorat savollari:

1. Sovet davrining 20-30 yillar tarixiga zamonaviy yondashuvni izohlang.
2. Ikkinci jahon urushi masalasiga hozirgi zamonaviy qarashlar qanday?
3. XX asrning 50-80-yillari tarixiy jarayonlariga munosabat bildiring.
4. O'zbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahlillarni qanday izohlaysiz?

4-mavzu: O'zbekiston tarixining bugungi tarixshunoslik muammolari.

Reja:

1. Mustaqillik yillari tarixchilar nigohida
2. "Yangi O'zbekiston-yangicha dunyoqarash" g'oyasining mazmuni

Tayanch so'zlar: xalq ta'limi tizimi, tarix fani o'qituvchisi novatorligi, dissertatsiyalar, monografiyalar, tarix o'qitishning asosiy shakli, tarixni ob'ektiv va

xolisona o‘rganish, tarixiy jarayonlarni tahlil qilish.

Mustaqillik yillari tarixchilar nigohida

Keyingi yillar mobaynida O‘zbekiston tarixini o‘rganishga nisbatan tobora o‘sib borayotgan qiziqish va intilishni hisobga olib keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallab O‘zbekiston tarixidan eng zarur bilim va ma’lumotlar beruvchi bir qator ommabop qo‘llanma va kitoblar yaratilmoqda. Ayniqsa, 2017-2019 yillar davomida tadqiqotchilar tomonidan ilmiy dissertatsiyalar, monografiyalar ko‘plab nashr qilinmoqda. Mazkur tadqiqotlarni yangiliklarini o‘quv jarayoniga tadbiq etish istiqboldagi tarix fani o‘qituvchisining kreativligini oshiradi. Jumladan, “O‘zbekiston tarixi” (o‘quv qo‘llanma. -Toshkent, “Universitet”, 1997); «O‘zbekiston tarixi. (qisqacha ma’lumtnoma, -Toshkent. 2000); «O‘zbekiston tarixi (ma’ruzalar to‘plami, -Toshkent, 2000); «O‘zbekiston tarixi» (1-qism, -Toshkent, 2002); «O‘zbekiston tarixi» (oliy o‘quv yurtlarining nomutaxasis fakultetlari talabalari uchun darslik, -Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2005) kabilarni asosiy darsliklar hisoblanadi. Shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, tarixchi olimlar tariximizning hali yaxshi tadqiq etilmagan sahifalarini yangicha yondashuvlar asosida yoritgan tadqiqotlar yaratib, yangi tariximizni yozishga, O‘zbekiston tarixi fanini oliy o‘quv yurtlarida, ayniqsa ularning tarix fakultetlarida o‘qitishni takomillashtirish ishiga munosib hissa qo‘shmoqdalar. Bu o‘rinda mualliflar jamoalari tomonidan yaratilgan O‘zbekistonning yangi tarixining uchta kitobini, "O‘zbek davlatchiligi tarixi", "Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti", "O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi", "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" kabi kitoblarni ko‘rsatib o‘tish zarur.

Shu narsa ayonki, xalq ta’limi tizimisiz, shu jumladan, tarix fanidan ta’lim berish yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqdaki, bu hol O‘zbekiston tarixidan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni vaqt-i-vaqt bilan yangilab, boyitib va takomillashtirib turishni zarur qilib qo‘yadi. Darhaqiqat, tarix ta’limi samaradorligini oshirish manfaatlari, talabalarni tarix ilmi bilan tarbiyalash, ular

ongida milliy istiqlol mafkurasi va uning eng muhim tamoyilni shakllantirish zaruriyati ana shu ishni amalga oshirishni taqozo etadi.

Chindan ham O‘zbekiston tarixi fani yangilanish, o‘sish, rivojlanish jarayonini boshdan kechirayotgan ekan, bu fandan o‘qilayotgan ma’ruzalar, yaratilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari vaqtি-soati bilan yangilanib turishi, yangiliklar va tarixshunosligimiz erishayotgan keyingi yutuqlarni o‘zlarida aks ettirib borishlari lozim. Mazkur qo‘llanmani tuzuvchilar uni yaratishga jazm etar ekanlar, ana shu holni nazarda tutganlar. Kitob Vatanimiz tarixinining favqulodda katta, mohiyatan g‘oyat muhim va boy sahifasini yoritishga bag‘ishlanadiki, bu davr qiyofasini ifoda etuvchi mavjud adabiyotlarning barchasi ham tarix fanimizning keyingi yutuqlarini aks ettirib ulgurbanicha yo‘q. Modomiki shunday ekan, yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratib, bu yutuqlarni aks ettirib, talabalarga yetkazish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtida ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko‘laming ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta’lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo ko‘plab pedagogik innovatsiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta’lim jarayonlariga o‘qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tatbiq etish bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo‘lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda tarix fani o‘qituvchisining o‘z fanigava barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o‘rgana borib, ularni o‘z mehnat faoliyatida izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Shuningdek, bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha tarixchi-pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ko‘tarishda talabalarni ilm-fan taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o‘quv dasturlari

mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali, zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bo'lajak tarix o'qituvchisining chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo'lishi ma'lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta'lim jarayonida yangiliklardan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog'liqdir.

Ma'lumki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi - pedagogik innovatika jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Tarix fani o'qituvchisi novator bo'lishi shart. Novatorlik va yangilik - madaniyat, ta'lim va umumiylidka jamiyat rivojlanishining ikki jihat. An'analar va yangiliklarning xilma-xil munosabatlari tayanib, madaniyatshunoslar jamiyatni an'anaviy va zamonaviyga ajratib ko'rsatishadi. An'anaviy jamiyatda an'ana novatorlik ustidan hukmronlik qiladi. Zamonaviy jamiyatlarda esa, novatorlik bazali qadriyat sanaladi.

Yigirmanchi asrning so'nggi yillarida jahon miqqosida ta'lim sohasida yuzaga kelgan quyidagi "inqiroz"li holatlar "qo'llab-quvvatlovchi" ta'limning muqobili sifatida "innovatsion" ta'limni rivojlanishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Turli davlatlarda uning xilma-xil shaklda namoyon bo'lishida quyidagi umumiy jihatlar yorqin namoyon bo'lmoqda:

- 1) ijtimoiy amaliyot rivojlanishi ehtiyojlari va oliy ta'lim bitiruvchilarining real tayyorgarlik darajasining o'zaro mosligini ta'minlash;

2) Oliy ta’limda tarix faniga yangi maqsadlarning qo‘yilishi hamda darsning tashkiliy tuzilishi va shakllarining o‘zgarishi;

3) ta’lim jarayoniga o‘quvchilarning qiziqish va imkoniyatlarining ortishi. Ayniqsa, O‘zbekiston tarixi fanining kirish imtihonlariga majburiy fan sifatida kiritilishi bu jihatdan ahamiyatlidir.

1979 yilda “Rim klubi” a’zolari “o‘zining asosida avval ma’lum, takrorlanuvchi vaziyatlarga tuzatish kiritish uchun taqdim etilgan metod va qoidalarni ifoda etuvchi” ta’lim tizimini “qo‘llab-quvvatlovchi” ta’lim deb nomlashdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, uning muqobili sifatida “innovatsion ta’lim” tushunchasi ham qo‘llanila boshlandi.

Ilm-fan va ishlab chiqapishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqticodiy tapaqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o‘zgapishlapning po‘y berishiga zamin yapatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo‘lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta’lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o‘zlashtipilgan nazapiy bilimlap bilan yangi o‘zlashtipiladigan bilimlap opacida myctahkam bog‘lanishlapning yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda Tarix fani o‘qituvchisi quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- teng qiymatli (ekvivalent) amaliyot qoidaci: ta’lim olyvchilapning ta’lim japayonidagi xatti-hapakatlapi test o‘tkazish yoki imtihon davpida ta’lim olyvchi tomonidan tashkil etilishi kytildigan xatti-hapakatlapga to‘la mos keladi;

- o‘xshash amaliyot qoidaci: ta’lim olyvchilap codip etilishi kytilayotgan xatti-hapakatlapini tashkil etish majbriyatiga ega bo‘lmay, balki mohiyatan shynday bo‘lgan shapoitlapda mashq qilish imkoniga ega bo‘ladilap;

- natijalapni aniqlash qoidaci: ta’lim olyvchiga yning hap bip xatti-hapakatining mazmynini baholash natijalapi bo‘yicha ma’lymot bekish, mazkyp shaptga akcapiyat hollapda jopiy nazopatni tashkil qilish japayonida pioya etiladi;

- pag‘batlantipish qoidaci: o‘quvchining maqbyl xatti-hapakatlapini

pag‘batlantipib bopish, pedagogik faoliyat japayonida ta’lim oluvchi tomonidan codip etilgan calbiy xatti-hapakatlap ychyn ynga tanbeh bepilmaydi, balki ylapni baptapaf etish ictagini yuzaga keltipyvchi amaliy ko‘pcatma bepiladi. Macalan, “yana bip marta ypinib ko‘p”, “yanada chyqyppoq o‘ylab ko‘p”, “macalani hal etishning yanada oconpoq yo‘li bor, yni topishga ypinib ko‘p” va hakozolap.

Real ta’lim amaliyoti ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishini to‘liq tasdiqlamoqda. Biroq ilg‘or pedagogik texnologiyalarni oliy ta’lim jarayoniga qo‘llash bilan bog‘liq bir qator muammolar ham ko‘zga yaqqol tashlanmoqdaki, ularni e’tiborga olish va hal etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday dolzarb muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Oliy ta’limda tarix fanlari bo‘yicha qo‘llash uchun mo‘ljallangan interfaol metodlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarining yetarli emasligi. Garchi respublikamizda pedagogik texnologiyaga doir qator o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, mazkur o‘quv qo‘llanmalar asosan interfaol metodlarga faqat ta’rif berish, mazmuni va qo‘llash bo‘yicha umumiylar xarakterga ega. Ularda alohida fan va uning mavzulariga doir metodik ko‘rsatmalar aniq o‘z ifodasini topmagan. Mazkur holat oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarining interfaol metodlarni qo‘llashga doir ma’lumotlardan to‘la xabardor bo‘lmashligiga olib kelmoqda. Oliy ta’limdadagi ta’lim jarayonini kuzatish professor-o‘qituvchilar keng qo‘llaydigan interfaol metodlar juda kamchilikni tashkil etishini ko‘rsatadi.

2) Tarix fanlaridan dars olib borayotgan professor-o‘qituvchilar interfaol metodlarni qo‘llashda metodik qoidalarga to‘liq rioya etishlari lozim. Boshqacha aytganda, interfaol metodlar fanning o‘ziga xos xususiyati, mavzuning maqsad va vazifalari, talabalarning yosh xususiyatlari, mashg‘ulot shakli, auditoriyada maqbul shart-sharoitning mavjudligi kabi jihatlarni aniq hisobga olgan holda qo‘llash lozim. Oddiy bir misol: o‘qituvchilar, ayniqsa, yosh o‘qituvchilar deyarli har bir mashg‘ulotida klaster metodini qo‘llaydi. Eng qizig‘i, mazkur metod orqali o‘quv maqsadiga erishish mumkin yoki mumkin emasligidan qat’iy nazar undan

foydalinish holati ko‘p uchraydi. Bundan tashqari, uch-to‘rt doirani chizish orqali tarmoqlar hosil qilish ham mumkin emas. Mazkur metod talabalarning ma’lum bir narsa-hodisa, jarayon yoki tushunchaga oid fikrlarini umumlashtirish, ularni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, klaster metodidan o‘tilgan materialni mustahkamlash bosqichidagina foydalinish mumkin. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, interfaol metoddan noo‘rin foydalinish ta’lim samaradorligini oshirishga emas, aksinchi mashg‘ulot sifatini pasaytirishga olib keladi;

